

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MA‘NAVIY TAHDIDLAR VA
UNGA QARSHI
KURASH YO‘LLARI
(metodik qo‘llanma)**

Alisher Navoiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti

Тошкент – 2010

Ma'naviy tahdidlar va unga qarshi kurash yo'llari: (metodik qo'llanma) /M.F. Lafasov [va boshq.]; mas'ul muharrir E. Holiqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika un-ti. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 112 b.

I.Lafasov, Moyli Fozilovich.

ББК 87.7

**Lafasov Moyli Fozilovich, Masharipova Gularam Kamilovna,
Jumaniyozov Xushnud Sapaevich, Lafasova Guljahon Moylievna,
Ubaydullaev O'ktam Qodirovich, Abdusaitova Ibodat Nevmatovna,
Jalolov Bahodir**

Ushbu metodik qo'llanmada bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri – ma'naviy tahdidlar va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari, ma'naviyatga tahdid jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf ekanligi, ma'naviy tahdidlarning oldini olishda oila va mahallaning o'rni, ommaviy axborot vositalarining ahamiyati, mafkuraviy immunitet – xavfsizlikning ma'naviy asosi ekanligi, xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar va ularning oldini olish chora-tadbirlari, globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zaruriyati, korrupsiya va jinoyatchilikning oldini olish, diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, missionerlik va uning oldini olish chora-tadbirlari hamda ma'naviy tahdidlar va unga qarshi kurash yo'llari yoritib berildi.

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy kengashining 2010-yil 25-noyabrda yig'ilishida muhokama qilinib 5-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Metodik qo'llanma ITD-4-161 "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashning takomillashtirilgan mazmunini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusidagi granti doirasida bajarilgan.

Mas'ul muharrir: t.f.n., prof. E.Holiqov

**Taqrizchilar: TTESI "Falsafa" kafedrasi dotsenti, f.f.n. D.Ortiqova
TDPU "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedrasi dotsenti, t.f.n.
A.Rahmonqulova.**

N4-4837/2011.

ISBN 978-9943-06-328-0

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat»¹. Bu ulkan vazifalarni ma'naviyatimizni milliylik asosida boyitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Islom Karimov mamlakatimizda milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib quyidagi konseptual g'oyani ilgari suradi. U shunday yozadi:

“Yoshlarimiz ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur”².

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ushbu mavzuni har tomonlama o'rganish eng dolzarb muammolardan biridir.

Birgina so'ngi davrlarda O'zbekistonimizning Mustaqil taraqqiyotini ko'ra olmayotgan vahhobiylar, diniy ekstremistik guruhlar beqarorlik urug'ini sepish, xalqimizni o'zi tanlagan yo'ldan ozdirish, chalg'itish uchun ne-ne kuchlarni ishga solmadilar, har qanday qabih vositalardan foydalandilar. Shunday ekan bunday kuchlarning ildizini yo'qotishga mamlakatimizning xushyor kuchlari astoyidil kirishganliklari tabiiy tarixiy dolzarb zaruriyatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ta'kidlaganidek, “Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlokl mafkurasi-xalq etiki kodl va buyuk kelajakka insonchdir. Toshkent, Uzbekiston, 2000, 23-24 betlar.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 115-bet.

qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman"¹.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning deyarli har bir ma'ruzasida ma'naviyat masalasiga e'tibor qaratiladi, har bir kitobida alohida bob ajratiladi. Ular birinchi marta alohida yig'ilib, 1994 yilda «Istiqlol va ma'naviyat» nomli kitob bo'lib chiqqan bo'lsa, 1997-98 yillarda yanada to'ldirilib, «Ma'naviy yuksalish yo'lida» («Na puti duxovnogo vrozrodeniya») nomi bilan o'zbek va rus tillarida mukammal shaklda nashr etildi². Ayniqsa, bu kitobdagi «Ma'naviy meros qudrati» O'zbekiston mustaqilligining bir yilligi tantanalarida so'zlagan nutqi), «Xalqni Vatan manfaatlari birlashtiradi» (Yozuvchilar bilan suhbat), «Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili» (O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining ochilishi marosimida so'zlangan nutq), «Vatan – hamma narsadan mo'tabar» (Mustaqillikning besh yilligidagi bayram tabrigi), «Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi» («O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida), «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin» («Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar), «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», (Tarixchi olimlar bilan suhbat) kabi suhbat va maqolalarida, undan keyin alohida nashr etilgan «Alloh qalbimizda, yuragimizda», «Milliy istiqbol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir», «Fidokor» gazetasi muxbiri bilan suhbat, «Egali yurt erkini bermas» (2000 yil avgust Oliy Majlis sessiyasida so'zlangan nutq), «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kabi qator asarlarida ma'naviyat masalalariga oid muhim fikrlar, yangicha g'oyalar olqa surilgan.

Vahhobiylilik, diniy ekstremizm va fundamentalizmga oid masalalar so'ngi davrlarda tobora yuqori darajada o'rganilmoqda. Vahhobiylilik uning mazmun mohiyati, diniy ekstremizm va fundamentalizmning kelib chiqishi to'g'risidagi masalalar Zuhridin Husniddinov³, Moyli Lafasov⁴ va boshqalarning ilmiy kitob¹, risolalarida, ilmiy maqolalarida o'rganilgan.

Yoshlarni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda ma'naviy tahdidlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirish, O'zbekistondagi

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 13-14-бетлар.

² Каримов И.А. На пути духовного Возрождения. – Ташкент, Узбекистан, 1997.

³ Хусниддинов З. Ислам ва маъхаблар. Вонга ёрдам: Маъруза матни. Т.: "Маънавият", 2000.

⁴ Лафасов М. Экстремизм, терроризм тарихи ва моҳияти. Т.: "Иқтисод-молия", 2008.

salbiy harakatlar va uning ma'naviy hayotga ta'siri haqidagi masala va muammolarni tadqiq etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- Ma'naviyatga tahdidning jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf ekanligini ochib berish;

- Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda oila va mahallaning o'rnini ko'rsatish;

- Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini tahlil qilish;

- Ma'naviy tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligini yoritish;

- Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini yoritish;

- Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zaruriyatini yoshlarga tushuntirish;

- Jamiyatimizdagi turli ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish.

Buning uchun o'qituvchilarni metodik jihatdan qurollantirish, darsni qanday o'tish kerakligini, talabalarga bilim olish yo'llarini o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Darslarni o'tishda o'qituvchi "Aqliy hujum", "Zinama-zina", "Labirint", "Muammo", "FSMU", "Yelpig'ich", "Muloqot", "Senariy" va boshqa texnologiyalardan xabardor bo'lishi kerak. Bu texnologiyalarni qanday qo'llash usullari R.Ishmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardaevlarning "Ta'limda innovasion texnologiyalar" (Toshkent, 2008) kitobida batafsil bayon etilgan.

¹ Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. Т.: "Тошкент ислом университети". 2005.

I-BOB. MA'NAVİY TAHIDDLARNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

1.1. Ma'naviyatga tahdid jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf ekanligi

Dars o'tish metodikasi:

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida **o'quvchilar kichik guruhlar**ga ajratiladi.

Mavzu va undan kutilayotgan natijalar e'lon qilinadi.

Ma'naviyat daqiqalarida guruhlar «Avesto», uning paydo bo'lishi va xalq ma'naviyatidagi o'rni haqida o'zaro fikrlashib, navbat bilan o'z mulohazalarini bildiradilar.

“So'z o'yini”da guruhlar jildxatlar tanlab, ularda joylashtirilgan ma'lumotlardan xalq og'zaki ijodiga doir dostonchiligimiz namunasi “Alpomish” va milliy bayramimiz Navro'zga oid ma'lumotlarni ajratadilar. Bu mashq uchun bir minut vaqt beriladi va natijalar doskada yoritiladi, izohlanadi.

Ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon muqaddas dinimizdir.

O'qituvchi “Islom dini” so'zi yozilgan format qog'ozlarni guruhlariga tarqatadi. Guruhlar tarqatilgan qog'ozlarda klaster mashqini bajarib bo'lgach, o'qituvchi so'zlarni mantiqiy guruhlashtirish to'g'risida topshiriq beradi. Masalan: ta'limiy, tarixiy yoki tarbiyaviy yo'nalishlarda guruhlashtirish. Topshiriq bajarilgach guruhlarning fikr-mulohazalari tinglanadi.

Keyingi yillarda bizning mamlakatimiz qanday xavf-xatarlar ostida qolgani, tinch-osoyishta hayotimizga qarshi qanday xurujlar bo'lganligi hammamizga ma'lum.

Bunday nojo'ya harakatlar, avvalo, muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir– oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Xalqimiz azaldan islom dini va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shib kelgan. Butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Otabobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni “Bahouddini Balogardon” deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning “Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin” degan

hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi.

Bu borada "Chechanlik" o'yini o'quvchilarning hadislarini yoddan bilishlari darajasini aniqlashga yordam beradi.

Hadislarining yarmi yozilgan qog'ozlarni tanlab olgan guruh a'zolari hadisning davomini yoddan aytishlari kerak bo'ladi, agar davom ettira olmasalar boshqa guruh a'zolari shartni bajarishlari mumkin.

Buyuk allomalarning ilmiy-ijodiy kashfiyotlari ma'naviyatimiz mezon.

Ahmad Farg'oniy insoniyat tarixidagi ilk Uyg'onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, o'z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma'naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyoringing donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi — tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi. Bu benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ushbu jadvalda zikr etilgan ilmiy ma'lumotlarning naqadar aniq va to'g'ri ekanini bugungi eng zamonaviy asboblarni ham tasdiqlaydi.

Mashg'ulot o'tishda jadval yordamida qiyosiy tahlildan foydalaniladi, bunda o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar (-) salbiy yoki (+) ijobiy baholanadi.

Qiyosiy tahlil jadvali

T/R	Milliy qadriyatlar	Davlat munosabati		Jamiyatdagi o'rni		Ruhiiy qoniqish	
		Sobiq ittifoq davrida	Mustaqillik davrida	Sobiq ittifoq davrida	Mustaqillik davrida	Sobiq ittifoq davrida	Mustaqillik davrida
1	Milliy meros						
2	Islom dini						
3	Buyuk allomalar va ularning ilmiy merosi						
4	Tarixiy qadamjolar						

Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar 10 kishidan iborat 3 ta guruh tashkil etadi va "Charxpalak" mashqi o'tkaziladi. Buning uchun har bitta kichik guruhga alohida sarlavhali plakatlari va turli rangdagi markerlar tarqatiladi:

1. Ma'naviy meros bu
2. Oila bu
3. Ta'lim-tarbiya bu.....

Guruhlar har bir plakat bilan 3 daqiqa ishlab, to o'z plakati qaytib kelgunicha, ya'ni uch marta plakatlarni o'zaro almashadi. Mashg'ulot oxirida har bir guruh o'z plakati ni taqdim etadi.

Ushbu mashg'ulotni integral texnologiyalar, ya'ni bir-biriga bog'lanib dars davomida uning yakunini yasovchi samarali natijasini ta'minlovchi usullar tashkil etadi. Ushbu usullar o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini, o'z-o'zini o'qitish jarayonini uzviy bog'liq ravishda rivojlantiradi. Mavzu bo'yicha mukammal bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan, ta'kidlab o'tadiki: "Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lur edi, ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir". Masalaga bunday keng qamrovli yondashuv kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Prezident I.A.Karimovning o'zi ham ta'kidlab o'tganidek, bizning ulug' ajdodlarimiz barchasi "o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga" da'vat etib kelganlar.

Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov doimo ta'kidlab

kelganidek: "...Farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida, o'z fikr-u tafakkuri va zamonaviy bilimga ega bo'lgan vatanparvar etib voyaga yetkazish – barchamizning otalik va onalik burchimizdir"¹. Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, ularni yuksak ma'naviyatli, ongi harqanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish – bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlarga kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "...Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot kamol topadi" degan so'zlari ayni shu ma'noni anglatadi. Bu esa har birimizning farzandlarimiz, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti, g'oyaviy chiniqishiga, har hil buzg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi murosasiz kurashchi ruhida tarbiyalashga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Aynan farzandlarning kamoloti – ertangi kunda barchamizning tinch hayotimizni ta'minlaydi. Buning uchun ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, ularga hurlik, ozodlik, demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat barpo etish, erkin fuqarolik jamiyat asoslari haqida tushuncha berish barchamizning burchimizdir².

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi, balki birlashtiradi. Aslida umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadriijiy anglab boradi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umummintaqqa madaniyati, janubiy-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqqa madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo'shni hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati – bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 112-бет.

² Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т., Ўзбекистон, 2000, 34-бет

adabiyot, urf-odat va an'analarning o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli basharning bunday bebaho mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborish mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma'naviyatimizga bugungi ayricha e'tibor ham ushbu o'zligimizni anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermog'chi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlarini nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yoxud loqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma'naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo'layotganidek, o'zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zligimizga qaytish, o'zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi. "Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi"¹.

Shu o'rinda savol tug'iladi: befarqlik, loqaydlik bilan yovuzlik orasidagi munosabat qanday? Tan olish kerakki, dunyoda son jihatidan olinsa, mutlaq yovuz odamlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Ular aslida odam ham emas, sunami, to'fon yoki zilzila kabi "xudoning bir balosi". Shunday ekan, qanday qilib juda ozchilik bo'lgan bu toifa ba'zan millionlab insonlar ustidan o'z hukmini yurgiza boshlaydi? Ayni yuqorida aytilgan hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirishni oshiqcha ish deb biladigan, Alloh va bashariyat oldidagi o'z burchini eslashni ham istamaydigan, faqat nafs qayg'usi va o'tkinchi hoyu havasga berilib kun kechiradigan odamlarning befarq va loqaydligi tufayli bunday yovuz kuchlar o'z makr-u hiylalarini bemalol amalga

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т., Ўзбекистон, 2000, 342-бет.

oshirishga muvaffaq bo'ladilar. Chunki bunday kimsalar ko'pincha o'zlari sezmagani holda yovuzlik kuchlariga xizmat qiluvchi dahshatli qurolga aylanib qoladilar. Shu sababli Prezidentning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida befarqlik va loqaydlik asl insoniylikka zid turuvchi qusur sifatida qattiq qoralanadi¹.

Aytilganlarga eng yorqin misol sifatida bugungi kunda butun dunyodagi fikrlovchi insonlarni borgan sari qattiqroq tashvishga solayotgan “ommaviy madaniyat” hodisasining kelib chiqishiga e'tibor qarataylik. Bu hodisa bugun butun dunyoga ko'proq Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlaridan tarqalayotganini hisobga olib, ushbu mintaqalardagi hozirgi ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanish tarixiga qisqa (eng umumiy bir tarzda) to'xtab o'tish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, shu kungacha jahon ilmida “ma'naviyat” hodisasi yaxlit tushuncha sifatida izchil ilmiy tahlilga tortilmadi. Bu sohaga oid mavjud izlanishlar boshqacha tushunchalar va tizimlar doirasida kechdi. Xususan, Yevropada inson ma'naviyatiga oid bahslar falsafa va uning tarkibiy qismi hisoblangan axloqshunoslik ilmi doirasida rivojlandi. Inson axloqi aslida zohiriy, aniqrog'i, ikkilamchi hodisa bo'lib, shaxs ma'naviyatining insonlar aro munosabatlarda namoyon bo'lishidir. Uning botinida ma'naviy omillar yotgani tufayli faylasuflar asosan axloqning botiniy omillariga e'tibor qaratganlar. Agar bu sohadagi Yevropa an'anasini umumiy bir tarzda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, axloqshunoslik ilmi ko'proq insonning iroda erkinligi, aql va bilim, baxt va lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik kabi masalalarga e'tibor qaratganligini ko'ramiz. Aksariyat holatlarda mas'uliyat va burch masalalari ham inobatga olinadi. Axloqning imonga bog'liq jihatlari xristian axloqida alohida ta'kid etilsa-da, yangi davrda bu masala ko'pincha aktuallashtirmaydi. Umuman, insonning dunyoviy maqsadlariga alohida e'tibor qaratilishi Yevropa axloq ilmining ustuvor jihati deyish mumkin.

Milliy ma'naviyatimiz an'analarda shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari – iymon, ilm, mas'uliyat, mehrning o'zaro uyg'unligi masalasi ustuvor yo'nalish ekanligi ma'lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko'ra Yevropa axloq ilmidagi ayni shu o'zaro mutanosiblikka yetarli e'tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma'naviy-axloqiy sohada juda og'ir muammolar kelib chiqmoqda.

XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008. 115-бет.

barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdan o'zgardi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. «Sovuq urush» davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyil va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi - o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'ymoqda»¹.

Insoniyat tarixi – XXI asrga qadam qo'ydi. XX asr tarix bisotidan o'rin oldi. Mantiqan insoniyat o'tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqeahodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchiligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Ustiga-ustak, ayrim kuchlarning urinishlari natijasi o'laroq, xavf-xatarlar ro'yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, demokratiya eksporti, ma'naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf-xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko'paytirdi. Odamzodning mavjud illatlarga qarshi kurashi qaysidir jihatdan afsonalarda tasvirlanadigan ko'p boshli ajdar bilan olishuvni eslatadi. Ajdarning bitta boshi tanasidan judo qilinishi zahoti, shu joydan ikki-usta bosh o'sib chiqishi bu mahluq bilan kurashish naqadar mashaqqatli ekanini ko'rsatadi.

Xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakl-u shamoyilini o'zgartirganini tushunib yetamiz.² Darhaqiqat, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида Т.: 6. - Т.: «Ўзбекистон», 1998, 240-241 – бетлар.

² Аббосхўжаев, Умарова Н., Қўчқоров Р. Мафкура полигонларидаги олишув. – Тошкент, «Академия», 2007. 14-15-бетлар

manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar»¹.

Aslida, suverenitet davlat miqyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to'la mustaqillikni anglatadi. Aynan suverenitet muayyan davlat mustaqilligining birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa suverenitetning qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Chunki suverenitet davlatning boshqa davlatlarga tobe bo'lmay, qaram bo'lmay yashashini, o'zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarining irodasiga bo'ysunmay, mustaqil hayot kechirishini nazarda tutadi. Muhimi, davlat suverenitetining o'rnatilishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgalar hisobiga yashash, turli kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat suvereniteti mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni inkor etadi².

Garchi butun dunyo mamlakatlari o'rtasidagi teng huquqlilik jahon hamjamiyati taraqqiyotining tabiiy va zaruriy sharti hisoblansa-da, ayrim mulohazalar va xatti-harakatlarda hamon imperiyacha fikrlash ta'sirini, davlatlar suverenitetini yemirish istagini ilg'ash qiyin emas.

Globallashuv jarayonlarini tahlil qilgan olimlar bu jarayonlarda davlatning rolini turlicha baholaydilar. Ayrim nazariyalarda globallashuv jarayonida davlatning roli tobora pasayib borishi uqtirilsa, boshqalarida uning o'rni va ahamiyati o'zgarmaydi, deb ta'kidlanadi. Yana bir guruh olimlar esa globallashuv sharoitida davlat bilan davlatlararo tashkilotlar o'rtasida siyosiy hokimiyat qayta taqsimlanib, davlat ularga o'z suverenitetining bir qismini beradi³, degan farazlarni ilgari surmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan e'tirof etilganidek, «O'zbekistonni olib borayotgan mustaqil siyosatdan qaytarish, kimgadir qaram qilish maqsadida chetdan turib ichki ishlarimizga aralashish, turli niqoblar ostida bizga qarshi tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish siyosatini mutlaqo qabul qilmaymiz»⁴.

Taassuf bilan tan olish kerak, diniy aqidaparastlik va terrorizm, «demokratiyani olg'a siljitish»ga urinishlar, axborot xurujlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish, ma'naviy qashshoqlashtirish harakatlari,

¹ Миллий истиклол го'яси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент, «Ўзбекистон», 2000, 3-бет.

² Аббосхужаев, Умарова Н., Кучкоров Р. Маффура полигонларидаги олишув. – Тошкент, «Академия», 2007, 16-бет.

³ Удовик С.Л. Глобализация: семиотические подходы. – М., «Ваклер», 2002, с. 389.

⁴ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият.//Халқ сўзи, 2005, 8 декабр.

buyuk davlatchilik tafakkuri va imperiyacha fikrlash xurujlari davlatimiz suverenitetiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ha, gegemoniya dunyo kabi ko'hna. Biroq bugungi kunda hududlarni harbiy kuch bilan zabt etish o'rniga jahonda yetakchilik qilishning noan'anaviy usullari, ancha zamonaviylashtirilgan, birmuncha madaniylashtirilgan usullari keng urf bo'lmoqda. Dunyoga hukmronlik qilishning eng oson va qisqa yo'llarini izlayotgan kuchlar tinchlikni oliy ne'mat deb biladigan, saxiy zamini tabiiy boyliklarga to'la, xalqi soddadil va mehnatkash O'zbekistonni o'z ta'sir doirasiga olishga intilayotganligini payqamaslik mumkin emas. Shuning uchun ham mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilangan.

Davlatlar suverenitetini kemiruvchi xavf-xatarlarga yuzaki qarash, ularni tahdid manbai sifatida e'tirof etmaslik insoniyat boshiga yana ko'plab kulfatlar solishi muqarrar. Shu bois, bugungi kunda suverenitetimizga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor g'oyalarni fosh etish birlamchi vazifaga aylanadi.

Hozirgi voqelikda milliy istiqlol g'oyasi va yot mafkuralar orasidagi munosabatlar mafkuraviy kurash, mafkuraviy qarshi turish, psixologik urush shakllarida kechmoqda. Yot mafkuralar mafkuraviy kurashlarning ming yillik uslublarini, shuningdek, zamonaviylashtirilgan uslublari: axborot maydonini egallab olish; mafkuraviy diversiya, siyosiy indoktrinasiya, mafkuraviy infiltrasiya, dezorientasiya, mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlarini qo'llash orqali xalqimizda O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchsizlik uyg'otishga, davlat siyosatini obro'sizlantirishga,

odamlarning o'zini Vatan, millat himoyasidan chetga tortishga, loqaydlikka erishishga intiladilar. Bunda ular biror xususiy faktni umumlashtirish (ekstrapolyatsiya), yolg'onni haqiqatga o'xshatib tasvirlash, kichik muammodan katta yolg'on yasash, bir narsani takrorlayverish, tuyg'uni aqldan ustun qo'yish, tinglovchining shaxsiy manfaatni birinchi o'ringa qo'yib, (unga do'st bo'lib ko'rinish) «hasratlashish», hukumatlarni xalqlarga yomon ko'rsatish, millat dushmanlariga rahmdillik, hamfirklik tuyg'ularini uyg'otish, masalan, odamlarga tanish, qadrdon ma'lumotlarni ishlatib, (falon joyda falon voqea bo'ldi), deb rostga yolg'onni ulab yuborish uslublaridan mafkuraviy kurashda foydalanayapti.

Har qanday jamiyat bunday makkor tahdidlarni yengishi uchun o'zida ogohlik, mafkuraviy xavfsizlik, to'kislik, jangovarlik, safarbarlik,

umummilliy birlik kabi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun milliy istiqlol mafkurasining yot mafkuralarga qarshi kurash uslublari, jumladan, buzg'unchi g'oyalar mohiyatini fosh qilishga qaratilgan targ'ibot, mafkuraviy monitoring va tahdidlar mohiyatini xalqimiz ongi va qalbiga yetkazish, jaholatga qarshi ma'rifat tarqatish uslublaridan doimo va hamma joyda foydalanish taqozo qilinadi.

XXI asr boshida mafkuraviy kurashlarning sho'ro davrida ko'rilmagan, yangi tahdidlar bilan va ilmiy-texnologik asosga qurilgan targ'ibotlar kurashi davri, deb ham tavsiflash mumkin. Chunki sho'ro davrida qo'llanilgan targ'ibot-tashviqot, mafkuraviy kurash usullari hozir ishlamaydi. Bizga tahdid solayotgan mafkuralar «maftunkor» ko'rinsa-da, yoki «ommabop» bo'lsa-da, puxta, ilmiy texnologik asosga qurilganligi sir emas. Chunki ularning targ'iboti oldingi va hozirgi zamonaviy mafkuraviy kurash usullariga ega. Faqat g'oya, maqsadning shakli o'zgargan. Masalan, ana shunday g'oyalardan biri «xalifalik davlatini tuzish» g'oyasidir. Bu g'oyaning mazmun va mohiyat jihatdan zararli ekanligini chuqur anglash zarur.

Xalifa so'zining lug'aviy ma'nosi, o'rinbosar, terminologik ma'nosi musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy boshlig'i deb tushuniladi. Xalifalik davlati mutloq monarxiya tipidagi davlat bo'lib, davlatni xalifa boshqaradi. Xalifalik davlatini boshqaruv tizimi islom-shariat qonunlari bilan belgilanadi. «Hizbut-tahrir» da'vo qilgan xalifalik davlati esa «Islom Nizomi» nomli kitobida bayon qilingan qonunlarga asosan boshqariladi. Vaholanki, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)dan rivoyat qilingan ushbu Hadisi sharifda aniq aytilgan: «Xalifalik mendan so'ng, ummatim ichida 30 yildir, undan keyin podshohlik bo'ladi».

Bu harakatlar mohiyati haqida Prezident Islom Karimov «Insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, buzg'unchi kuch, hatto, fanatizm (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Aynan fanatizm illatiga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhлари jamiyatda beqarorlik to'lqinini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar»¹, – deya alohida ta'kidlaydi.

Shuningdek, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi o'rmini hisobga olib, ular diniy oqimlar O'zbekistonda rivojlantirilsa, buning ta'siri tezda Markaziy Osiyoga yoyilishiga umid qiladilar. Chunki islom allomalarining ayni Movarounnahrda chiqqanligi bu o'lka xalqi milliy

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳафсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997, 37-б.

xarakteri, ma'naviyatining shakllanishiga sezilarli hissasini qo'shganligini biladilar. Shu asosda ular diniy niqob ostida yoshlarning mafkuraviy immunitetini susaytirib, ularga davlatimizning demokratik siyosati tamoyillarini qoralab, davlat va xalq o'rtasida ziddiyat keltirib chiqarishga umid qiladilar. Shu sababli Hizbut tahrir dastlab yoshlarda soxta islomiy fikrlarga ishonchni oshirishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi. Buni ular saqofiy (tushunchaga oid) amallar, ya'ni siyosiy amallardir. Eng muhimi, deb hisobladi. Boshqacha qilib aytganda, yoshlarning mafkuraviy immunitetini susaytirish, yengish va o'zlarining soxta g'oyalarini singdirishni birinchi vazifa qilib oldilar.

Sh.Sharopovning "Turkiston" gazetasida 2003-yil 13-martida chop etilgan maqolasida soxta g'oya ta'siriga tushgan bir yoshning xati keltiriladi, jumladan unda shunday deyiladi: «Men turli aldovlarga uchib, «Hizbut tahrir»dek manfur oqimning qora girdobiga tushib qolganman. Dinni o'rganishga bo'lgan qiziqishim va bu yo'lda qabih niyatli «soxta mulla»lar da'vatiga ko'r-ko'rona ergashganim tufayli, oxir-oqibatda xiyonatkor kimsaga aylandim. Nadomatlar bo'lsinkim, biz yoshlar Ollohning buyuk ne'mati bo'lgan tinchlik va osoyishtalikning qadriga etmadik. Maktubimni yo'llashimdan maqsad, hali-hanuz yoshlarni yo'ldan urayotgan kimsalarning qora qilmishidan tengdoshlarimni ogoh etishdir. Mening qismatim g'aflatda qolgan tengdoshlarimga saboq bo'lsa, ajab emas.

1999 yilning oxirlarida Said meni Matkarim degan bolaning uyiga taklif qildi. U yerda Matkarim besh-olti nafar bolaga «Islom nizomi» degan kitobdan dars o'tar edi. O'sha kungi dars so'ngida u: «Mana shu bolalar ham qasam ichib, «Hizbut tahrir»ga a'zo bo'ldi, sening o'rtog'ing ham a'zo. Sen ham a'zo bo'lgin», dedi. Hali ilmim yo'qligini tushuntirsam, ilmni keyin olaverishim, qasam ichib, «Hizbut tahrir»ga qancha erta a'zo bo'lsam, savobi shuncha ko'p bo'lishi, hozir esa go'yoki savobsiz yurganligim, ilmni ishlatganim bilan savobim yo'qligi kabi gaplar bilan boshimni qanday qilib aylantirib qo'ygandligini sezmayman. Shundan so'ng haftada bir marta darslarga qatnaydigan bo'ldim... Hozir o'ylab qarasam, qaysi bir kimsa yozgan «Islom nizomi» kitobini Qur'on bilan tenglashtirar ekanmiz.

«Hizbut tahrir»ga asosan maktabda yaxshi o'qimagan, tarbiyasi bo'sh oilalarning farzandlarini da'vat qilardik. Chunki ularni boshqarish juda oson. Ilmli odam «Hizbut tahrir»chilarning faoliyati jinoyat ekanligini tushunadi. Ilmi yo'qlar esa o'zlari qilayotgan da'vatlarining mazmunini ham anglab etmasdi. Yana qanday qilib bozorlarda, aholi ko'p bo'lgan joylarda g'avgo chiqarish, fitna uyushtirish kerakligi

haqida ham aytib berilar edi. Bu ishlar odamlarda davlat tuzumiga nisbatan norozilik tug'ilib, bizga ko'proq qo'shiladi, «Hizbut tahrir» kuchayadi, degan maqsadda qilinlar edi.

...Jamoat transportida aholini davlat tuzumiga nisbatan norozilik keltirib chiqarish uchun «ochiq da'vat»lar qildik. Endi o'ylab ko'rsam, «Hizbut tahrir» boshliqlari yuragimizga qo'rquv solib, jinoyatga undagan ekan. Ilmsizligim meni ana shu yo'lga boshladi...» deydi bu haqda nomini aytmaslikni so'ragan, hidoyat yo'liga qaytgan yoshlardan biri¹.

Odamlarni u yoki bu maqsadga yo'naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayon. Bunda targ'ibot sub'ektlari (targ'ibotchilar, TV, radio, matbuot) va targ'ibot ob'ektlari (shaxs, aholi) ishtirok etadi. Targ'ibot va tashviqotning samaradorligi xalq, jamoa siyosiy ongida targ'ibotgacha va targ'ibotdan keyingi darajalar orasidagi farqda bilinadi. Jamoa mafkurasidagi o'zgarishlar ilmiy yutuqlarga asoslangan holda olib borish, targ'ibot va tashviqot samarasini, yutuq va kamchiliklarini aniqlash va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Mafkuraviy tarbiya samaradorligi eng avvalo jamiyatni mafkuraviy tarbiyalash natijalari qanday bo'lishi kerak ekanligining aniqlanishiga bog'liq.

Vahhobiylik ham avval boshidan boshlaboq islom dinini tozalash, uni asli holatiga qaytarish, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy hayotidagi mavqei kuchaytirish, islomni hukmron dinga, davlatni esa kuch ishlatib islom davlatiga aylantirish, dinni modernizatsiya qilish, unga yangiliklar kiritishga qarshi qaratilgan siyosiy harakat sifatida yuzaga kelgan².

Yoshlarni g'oyaviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan o'z saflariga tortish masalasi vahhobiylar harakatida hamma vaqt ham asosiy o'rin olib keldi. Ularning qarashlariga ko'ra, yoshlarning bir marta o'qigan namozi keksalarning yetmish marta o'qigan namozidan foydaliroq emish.

XXI asrda ham g'oyaviy tortishuvlar to'xtamayapti. Shu bois xalqimizning ertangi mafkuraviy birligini ta'minlash g'oyaviy tarbiyaning izchil, doimiy asosga qo'yilishini taqozo etdi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki:

1. Diniy aqidaparastlik va boshqa yot mafkuralar, eng avvalo, ayrim yoshlarning g'oyaviy-siyosiy tajribasizligiga tayanadi. Yot mafkura va buzg'unchi ta'sirlar bilan kurash mafkuraviy tarbiyada loqaydlik,

¹ Шаропов Ш. Хакикат йўли. // Туркистон газетаси. 2003, 13-март.

² Юсупов Э. Исламий кадриятлар ва экстремизм. – Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти нашриёти, 1999, 18-бет.

befarqlik kayfiyatining har qanday ko'rinishlariga murosasizlikni taqozo qiladi.

2. Qarshi targ'ibot samaradorligining zaruriy tamoyillaridan biri uning tezkorligida bo'lib, unda muayyan mintaqaviy sharoitlarni, kishilarning yosh xususiyatlarini, oliy o'quv yurtining u yoki bu muddatda hal qila olishi mumkin bo'lgan mafkuraviy imkoniyatlarini hisobga olish ko'zda tutiladi.

3. Shaxsning mamlakat ichkarisida va tashqarisida sodir bo'layotgan voqealarni mustaqil tahlil qila olishi mafkuraviy immunitetni mustahkamlaydi.

Mafkuraviy tahdid o'zining mazmuni, tamoyillari, uslublari va shakllariga ko'ra murakkab hodisadir. Unga: Mustaqil O'zbekistonning hayotiy yutuqlarini dalil-isbotsiz, ataylab qoralash, mustaqillikka erishgan mamlakatlarning hammasida bo'lgan umumiy muammolarni «faqat O'zbekistonda bor» deb talqin qilish, erishilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yutuqlari mohiyatini, hukumatimizning tashqi va ichki siyosatini soxtalashtirish, buzib ko'rsatish; ayrim mamlakatlar turmush tarzi, siyosiy tizimini bir yoqlama ko'kka ko'tarish; milliy g'oyalimizni obro'sizlantirish; ko'p millatli O'zbekistonda aholi o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni buzishga qaratilgan kayfiyatlarni tarqatish va nizolar keltirib chiqarishga urinish; odamlarning diniy tuyg'ularini junbushga keltirish kabi yo'nalishlar xosdir.

Yot mafkuralar targ'ibotining «mehribonligi», «xolisligi» va «betarafligi», «yoqimlilik», «do'stonaligi»ning ortida nima yotganini doimo bilishlari lozim. Ya'ni ularning zamirida O'zbekistonning rivojlanib ketishiga qarab muntazam taktikasini o'zgartirib turuvchi jonsarak aqidaparastlik targ'iboti natijasi va amaliyoti yotganini, ularning an'anaviy fundamentalistik nazariya va g'oyalarni zamonaviy usullarda «jonlantirayotganini» tushunish zarur.

Shu bilan birga ayrim yoshlar har xil yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganliklarini ham ta'kidlash kerak. Yot mafkuralarni ko'r-ko'rona qabul qilish zararlidir.

Jahonning demokratik mamlakatlari tajribasida mafkuraviy tarbiyaning boy imkoniyatlari, turli namunalari to'plangan. Yosh avlodni, butun jamiyatni o'z davlati, mamlakatining mafkurasi ruhida tarbiyalash – sotsiologik, pedagogik, psixologik muammo sifatida faol o'rganilib kelinmoqda. O'tgan asrning 60-70 yillari G'arbiy Yevropa va AQShda mafkurasizlashuvga, ya'ni ijtimoiy hayotni mafkuradan xoli etishga urindilar. Lekin bu yo'l o'zini oqlamadi. Chunki tarbiyadagi mafkuraviy bo'shliq o'z asoratlarini ko'rsata boshladi. Bu haqda nufuzli

nemis nashrlarida: «Hozirgi yoshlarimiz o'rtasida loqaydlik, ruhsizlik, befarqlik. anglanmagan norozilik, beqarorlik kayfiyatlari tarzida namoyon bo'layotgan «yoshlar madaniyati» deb ataluvchi xatti-harakatlar kuchaymoqda. Bu – yoshlarning o'z ajdodlari ijtimoiy va madaniy qadriyatlaridan begonalashayotganliklarining belgilaridir», - degan tashvishli fikrlar bildirila boshlandi. Natijada «mafkuraviy yangilanish», «qayta mafkuraviylashuv»ga kuchli zarurat tug'ildi va mafkurasizlik xatosini tuzatishga kirishildi. Shu tariqa, G'arbiy Yevropa va AQShning pozitivistik pedagogikasi ijtimoiy qadriyatlarga e'tiborni, mafkuraviy tarbiyani o'z ichiga oluvchi «maktabda o'quvchilarni siyosiy indoktrinatsiyalashni amalga oshirish» konsepsiyasini ishlab chiqib, amalga oshira boshladi.

AQShda mafkuraviy tarbiya, ya'ni «siyosiy ijtimoiylashuv» konsepsiyasining maqsadi yoshlarni amerikalashtirishdir. Bu – ularga o'z Vatani - AQSh siyosiy sistemasi va ma'naviyatini mukammal singdirish, e'tiqodiga aylantirishning ilmiy-pedagogik sistemasidir. Mafkuraviy tarbiyani amalga oshirish uchun adaptatsiya kurslari, turli o'yinlar orqali o'quvchilar Amerika jamiyatining bo'lajak «namunaviy fuqarolari» sifatidagi axloqiy. mafkuraviy vazifalarini, burchlarini ado etishga amaliy tayyorlanadilar. Yoshlar jamiyatlari, uyushmalari, «ochiq eshikli uylar», kasbiy klublar ham mazkur maqsadga xizmat qiladi.

Amerika maktablarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish - o'z milliy manfaatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Buni tushunsa bo'ladi, zero, bugungi yosh avlodning g'oyaviy, mafkuraviy birligi - ertaga Amerika xalqining g'oyaviy. mafkuraviy birligini anglatadi-da! Shu sababli AQShning «Millat» («The Nation») jurnali «Agar ijtimoiy fan o'qituvchisi maktab sinfidan o'zining liberal qarashlarini bildiradigan joy sifatida foydalana boshlar ekan, u tez orada ishsizga aylanadi», - deya ogohlantiradi.

Biz o'z oldimizga milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirishni maqsad qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va me'zonlarni chuqur tahlil qilishimiz, ularni yaxshi anglab etishimiz zarur.

Har bir xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, urf-odat va an'analari, milliy qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi ma'naviyatimizning muhim omillaridandir.

1.2. Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda oila va mahallaning o'рни

Dars o'tish metodikasi:

Ushbu mavzuni o'tishda "Auksion" texnologiyasini qo'llash asosida darsni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

"AUKSION"

Texnologiyaning maqsadi: Ishtirokchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchi darajasiga ko'tarish.

O'tkazish tartibi: Mavzuni mustahkamlash uchun ishtirokchilar kichik guruhlariga bo'linadilar. Buning uchun har bitta kichik guruhga alohida sarlavhali plakatlar va turli rangdagi markerlar tarqatiladi.

Guruhlar har bir plakat bilan ishlab, to'z plakati qaytib kelgunicha, plakatlarni o'zaro almashishadi. Mashg'ulot oxirida har bir guruh o'z plakatini taqdim etadi.

Misol:

Ma'naviy meros, bu ...

Ajdodlarimizning yozma-og'zaki ijodi

Muqaddas dinimiz

Avesto

Qur'oni Karim

Hadisi sharif

Ta'lim-tarbiya – bu,

Sharqona qarash

Sharqano falsafa

Kelajak poydevori

Millatning kelajagi

Jamiat barqarorligining muhim omili

Oila – bu,

Muqaddas maskan

Jamiatning bosh bo'g'ini

Ta'lim-tarbiya maskani

Milliy urf-odatlar maktabi

Sog'lom avlod asosi

Farzand, bu...

Hayot, bu ...

Sevgi, bu...

Baxt, bu...
Bahor, bu...

Bu mavzuni o'rganishda Prezident I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridan¹ unumli foydalanish mumkin. Xonadondagi har bir narsa – daraxt va o'simliklar bo'ladimi, turli o'yinchoqlar, uy hayvonlari bo'ladimi – bularning barchasi bolaning ko'ziga go'yoki olamning beqiyos mo'jizasi bo'lib ko'rinadi va shu tariqa u yorug' dunyoni o'zi uchun kashf qiladi, deydi muallif. Darhaqiqat, bolalarga milliy qahramonlarimiz haqida ertaklar aytib berish, milliy ideallarimizni o'zida ifodalagan o'yinchoqlar taqdim etish ularning murg'ak ongiga o'z xalqidan g'ururlanish tuyg'usini o'stirish yo'lida qadalgan ilk urug' emasmi?

Prezidentimiz yosh avlodning bolalikdan Alpomish kabi yengilmas bahodir bo'lish tuyg'ulari bilan yashashini orzu qiladi. Ota-onalarni Alpomish timsolida Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarni tarbiyalash uchun ma'naviy tarbiya bilan astoydil shug'ullanishga chaqiradi.

Oilada davr va zamon, davlat va jamiyatning deyarli barcha muammolari ochiq muhokama etiladi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» deyдилar. Ota-onaning ma'naviyati farzandlarda aks etmasdan qolmaydi, albatta. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktabga katta yordam beradi va aksincha, oilada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, maktab va ta'limning yuqori bosqichlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini qiyinlashtiradi. Oiladagi ma'naviy muhit va ta'lim muassasasidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning bir butunlikni tashkil etishi jamiyat birdamligi, ma'naviy-g'oyaviy birlikning yuzaga chiqishida bosh omil hisoblanadi.

Bola maktabga bora boshlagach, ta'lim muassasasi zimmasiga unga yetarli bilim berish bilan birga, uning ma'naviyatini rivojlantirishdek ulkan mas'uliyat tushadi. Zero, yoshlarning bilim va tafakkur doirasi kengayib borgan sari, har bir narsa, voqea-hodisaning g'oyaviy mohiyatini anglashga bo'lgan qiziqishi va intilishi tobora ortib boraveradi. Ayni shu jarayonda ustozlarning tarbiyachi sifatidagi faoliyati har qachongidan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, degan chuqur mazmunga ega falsafiy fikr bildiriladi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Т. Маънавият, 2008.

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yoxud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Qolaversa, oila faqat er va xotindagina iborat emas. Oila er-u xotindan tashqari ernaing ota-onasi, ya'ni qaynota va qaynona, farzandlar, aka-uka, opa-singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadon. Uning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega. shu oilaning ichki intizomiga bo'ysunib yashaydi. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: bunda minglb tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbati sinovdan o'tadi, shu sinov jarayonida ular bir-birini chuqurroq tushunadilar, bir-birlarini qadrlashni o'rniga quyadigan bo'ladi, bir-birlariga kechirimli bo'lishadi, er-otaga, xotin-onaga aylanadi, farzandlarini tarbiyalab, orzu-haas ko'radi. Shu ma'noda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi.

Jamiyat rivojlangan sari, ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati ortgani sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchayib boradi.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi alodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan bo'lib, insonlrga xos "tabiiy-biologik", iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

O'zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining eson-omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

Shuning uchun ham mamlakatimizda oila va uning muqaddasligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 1998-yil "Oila yili", 1999-yil esa "Ayollar yili", 2000-yil "Sog'lom avlod yili", 2008-yil "Yoshlar yili", 2010-yil «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilindi.

«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida "inson ma'naviy olamining yuksalishi" deganda nimani tushunish kerak, degan savolga aniq va lo'nda javob berilgan: "Ollohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish". Prezident

I.A.Karimov yana ta'kidlaydiki, ushbu qoidani tushunish va e'tirof etishning o'zi kifoya emas, balki ayni shu e'tiqodga amal qilib yashash – "odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon"dir.

"Takror aytishga to'g'ri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur". Prezidentning hushyorlikni yo'qotmaslik, beparvo bo'lmaslik xususidagi uqdirishlarini to'g'ri tushunadigan bo'lsak, yosh avlodga to'g'ri ta'lim berish bilan birga, har bir aytgan so'zimizga avvalo o'zimiz rioya qilishimiz kerak bo'ladi. Masalan, "ilm ol" dedikmi, o'zimiz umr bo'yi ilmimizni oshirib, puxtalab borishdan to'xtamasligimiz kerak; "halol va adolatli bo'l" dedikmi, o'zimiz farzandlarimizni halol luqma bilan boqayotganimizga, o'z foydamizni ko'zlab birovga zulm bo'ladigan xatti-harakatdan saqlanishga qat'iy urinmog'imiz lozim bo'ladi. Ana shundagina bolalarimiz kelajagidan xotirjam bo'lishimiz mumkin.

"O'z-o'zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda".

Albatta, barcha muammolarni bir kunda, bir hamla bilan yechib bo'lmaydi. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash bir umrlik ish. Mustaqilligimiz bu sa'y-harakatlarimiz samarali bo'lishining ishonchli kafolatidir. Ammo har bir ishda yolg'on qadamlardan, oson yechimlar qidirishdan ehtiyot bo'lmog'imiz juda muhim. Har bir ishda qiyinchilikni bo'yniga olgan odam haqiqiy yutuqqa erishadi. Ayniqsa, biz ziyolilar, yosh avlod tarbiyachilari o'z vazifamizga mas'uliyat bilan yondoshsak, "farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash"dan, shu yo'l bilan ular ongida "mafkuraviy immunitet" hosil qilishga urinishdan charchamasak, millatimiz yana buyuk millat bo'ladi, avlodlarimiz ajdodlarimizga munosib qudrat kasb etadi. Muallim mehnatining samarasi uzoq kelajakka ulanib ketadigan ezgu mehnat. Keling, avlodni boqiylikka eltuvchi mehnatdan erinmaylik, toki Prezidentimizning, xalqimizning yorug' orzulari ushalsin, "yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin".

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi, deyiladi Prezident

I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida. Shunday ekan, yurtimizda yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz lozim. Toki, yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, bizga mutlaqo begona g'oyalari ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Prezidentimiz yosh avlodni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida to'xtalib, nafaqat xalqni ulug'laydigan buyuk fazilatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan noma'qul odatlar haqida ham fikr yuritadi. Birinchi navbatda, xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatni butkul xalos etish zarurati haqida kuyinib yozadi¹.

Mahalla – insonni jamiyat bilan uyg'unlashtiradigan hamda shu ruhda tarbiyalaydigan eng katta sahovatli go'sha va beqiyos Vatan. Muallif xalqimizning “Mahalla – ham ota, ham ona” degan hikmatli iborasini keltirib, bu so'zlarni millatimiz uchun “hayotiy haqiqatning ifodasi” deb ta'riflaydi va mahallaning tarbiya maktabi sifatidagi vazifasiga alohida urg'u beradi.

Hozirgi davrda oilada axloqiy tarbiyaga e'tibor berish zaruriyati yuzaga keldi. Jamiyat a'zolarida ahloqiy xislatlarni tarbiyalashda dinning o'rni beqiyosdir.

Ma'lumki, musulmon madaniyati o'zida etnik sabr-toqat va bag'rikenglik ruhini aks ettiradi. Uning Forobiy va Ibn Sino asarlarida oz in'ikosini topgan ideal – fozil kishilar mehri nafaqat diniy asosda, balki madaniy va ahloqiy negizda ham uyushgan odamlarning hamjamiyatidan iborat bo'lganligi tasodifiy emas. Shuning uchun ham degan edi yurtboshimiz – “Oila qadriyatlar va qon-qarindoshlik o'z umrini yashab, bo'layotgan oila-urug' munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan erkin bo'lishi imkoniyatini anglatish lozim”².

Oiladagi axloq, odob tarbiyasi avtomatik tarzda amalga oshmaydi. Eng muhimi - oiladagi ma'naviy muhitdir. U inoqlik, ahillik, totuvlikdir.

¹ Эргашев И. ва бошқалар. Миллий истиклол го'яси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. – Т., Академия, 80-бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бусафасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., “Ўзбекистон”, 1997. 147-бет.

Ota - onalarning milliy - madaniy saviyasi, kasb-hunari, milliy mansubligiga, diniy e'tiqodlari ham bolalarning axloqi, odobi, butun ichki dunyosi shakllanishiga ta'sir etadi.

Bola ota - onasidan mehr ko'rmasa, bag'ritosh bo'ladi, ortiqcha erkalatilsa, taltayib ketadi.

Oiladagi tarbiyada yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalashga e'tibor berish kerak.

Muayyan millatga mansublikni ham xis qilish lozim. Uning tarixi, tili, qadriyatlarini bilish insonning ma'naviy kamol topishida nihoyatda muhim.

Milliy iftixor har bir yosh yigit va qizning o'z millati va tarixi, taqdiri, istiqboli mamlakatining imkoniyatlarini bilishidir. Vatan, millat manfaatlari yo'lida fidokorona mehnat qilish uning shon - shuxratining ulug'ligiga intilishidir. Milliy ruh esa milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'usi asosida shakllanadi. Milliy ruh har bir shaxsdagi ichki ma'naviy qudratdir. Kelajakka ishonch mustahkam e'tiqoddur. Milliy ruh milliy irodani mustahkamlaydi.

Insonning vataniga bo'lgan sevgisi ham o'z millatiga bo'lgan ishonchi va hurmati asosida shakllanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz: "O'zbekiston – muqaddas Vatan. Ota-bobomiz xoki yotgan yer o'zimiz yotadigan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehru-muhabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani – hammamizni quvontiradi"¹, – degan edilar.

Yoshlarda vatan, millat taqdiriga nisbatan loqayddik kuchaysa, ular mamlakatda bo'layotgan voqealarga nisbatan befarq qarasalar – bu chuqur milliy fojiani belgisidir. Vatan va millat har bir inson uchun qiblagohdir, sajdagohdir. Inson uchun Vatan va millat bittadir. Shu Vatan tinch bo'lsa, biz tinch bo'lamiz. Boy bo'lsa, boy bo'lamiz. Tinch, osoyishta rivojlansa, barcha orzu-umidldrimizga erishamiz. O'zbekiston dunyodagi barcha o'zbeklarning boshini qovushtiradigan, manfaatini himoya qiladigan, qadr-qimmatini ulug'laydigan, tarixiy xotirasini shakllantirib mustahkamlaydigan yagona mamlakatdir.

Oilada milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash ota-onalarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy saviyasiga ham bog'liq. Hozirgi ko'plab ota - onalar sovet tuzumi davrida tarbiya ko'rgan. Bu davrdagi siyosat esa kishilarning milliy iftixor tuyg'usini soxtalashtirishga, ularning o'z

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Т., "Ўзбекистон", 1995, 91-бет

tarixiy xotirasidan mahrum bo'lgan manqurlarga aylantirishga qaratilgan edi. Shu sababli yoshlarnigina emas, hatto ayrim otionalarning ham milliy ongi va tarixiy xotirasi yetarli darajada shakllangan emas.

I.Karimov: «O'ylab ko'ringlar, aziz do'stlar, mustabit tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik. Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo'lida edi? Ka'ba deb qayerga sig'inar edik. Har tong «Assalom» - degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg'onardik? Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning muqaddas xoklariga e'tibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug' bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi? Milliy g'ururimiz, insonlik sha'nimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi? Xo'sh, o'zimizchi? O'zimiz o'zligimizni bilarmidik? Qanday mo'atbar zamin, ulug' ajdoddarimizning o'lmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanligimizni anglarmidik?¹».

Yuqoridagilarni ota-ona bilib olgandan so'ng farzandlariga o'rgatishi zarur.

Ota-ona farzandlariga berayotgan tarbiya inson shaxsi shakllanishining birinchi poydevoridir. Bu poydevor inson ma'naviy olami degan jarayonning hammasi emas, balki boshlanishi. Bu poidevor aql, idrok, ma'suliyat bilan barpo etilgan bo'lsa, uning ustiga go'zal mustahkam bino qurish mumkin. Bu binoning chiroyi, naqshlari inson hayotining barcha davrlarida jilolanib sayqal berib turadi. Inson umri qancha uzun bo'lmasin, bu binoni takomillashtirish, go'zallashtirishni davom etaveradi, hech vaqt o'z nihoyasiga yetmaydi...

¹ Karimov I.A. Юсак маънавият - енгилмас куч. - Т., "Маънавият", 2008, 5-6-бетлар

1.3. Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati

Dars o'tish metodikasi:

Mazkur mavzuni o'rganishda o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida "Aqliy hujum" usulidan foydalanish samarali natija beradi.

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan usuldir. Bu haqiqatan ham o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham jalb qilishi, ishlashga imkon beruvchi va rag'batlantiruvchi usuldir. Aqliy hujum faollashtirishning shunday muhim usuliki, unda yakka ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga jalb qiladi. O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur. Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Aqliy hujum usulini qo'llashda quyidagi shartlarga rioya etish kerak:

1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.

2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqidning mavjud emasligi.

3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.

4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emasligi.

Guruhning barcha ishtirokchilariga mavzu asosida savol beriladi.

1. O'quv jarayonida tashabbusni o'qituvchi o'z qo'liga olib, auditoriyadagi barcha o'quvchilarga savol beradi va mavzuga daxldor fikrlarni aytishni so'raydi.

2. Xohlagan g'oyalarni aytishga ruhsat beriladi, lekin fikr berish jarayonida mavzudan chetga chiqish mumkin emas.

3. Berilgan fikrlar sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. O'qituvchi asosiy fikrlarni doskaga yozib boradi yoki ekranda ko'rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlariga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

Moddiy va ma'naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdiridagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Yurtimizda moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mavzuning shu jihatini yoritishda o'quvchilarni faollashtirishga xizmat qiladigan usullardan biri "FSMU" texnologiyasi qo'llaniladi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrlarini boshqalarga yetkazishga, ochiq holda bahslashishga shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalil yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O'tkazilish tartibi:

Har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining to'rtta bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi.

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizga sabab ko'rsating

M- ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring

U- fikringizni umumlashtiring

O'quvchilar bilan bahs mavzusi yoki muammo belgilab olinadi.

Kichik guruhlariga bo'lib, ularga FSMU texnologiyasining to'rtta bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlar tarqatiladi va ularga o'quvchilarning alohida yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarini umumlashtirgan holda yozishlari taklif etiladi. Kichik guruhlar yozgan fikrlarini o'qib himoya qiladilar. Treningda o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha fikrlar umumlashtiriladi.

Mavzuni mustahkamlashda "Pinbord" usulini ham qo'llash mumkin.

"Pinbord" (inglizcha: pin-mustahkamlash; board-doska). Bu o'qitish usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbat amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzalligi rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xislatga egaligidadir. O'quvchilarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan usulalarda darslarni tashkil etish o'quvchilar tomonidan mazkur asarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ularda bahs-munozara, qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

"Ommaviy madaniyat" hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan birinchisi – imonsizlik, o'z insoniy burchi va

mas'uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi – sanab o'tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi “dunyoni manfaat boshqaradi” (demak, bu dunyoda har kim o'z foydasi uchun qo'lidan kelgan harakatini qilsa, bo'laveradi, degan) dahriyona (aniqrog'i, xudbinona) tezis (“qoida”) asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo'lgan. Uchinchisi – oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya'ni dunyoda azaliy va abadiy qat'iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko'pchilik o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili va nihoyat to'rtinchisi – bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida Prezident ta'rifiga muvofiq, befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni “umuminsoniy axloqiy meyorlar” darajasiga ko'tarishga urinishlaridir.

Bunday holatlar Yevropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo'lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko'lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ'ibot imkoniyatlariga ega bo'lmagan edi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida bu haqda shunday deyiladi: “Shuni unutmazlik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimaz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”.

“Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida, – deb kuyunchaklik bilan qayd etadi Prezident – katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin”.

“Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda”, – deb yozadi Prezident o'z «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida va bunday xatarli holatdan faqat o'z xalqini emas, balki butun jahon afkor ommasini ogohlantirish lozim deb biladi.

“Ma'naviy tahdid deganda, – o'rinli izoh berib o'tadi Prezident, – avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan

ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman”.

Prezidentimiz topib aytganidek, “kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir shayton izmida yuradi,” har kimning gunohi ham, savobi ham o'ziga. Ammo bostirib kelayotgan xavfni ko'rib turib, ko'rmaslikka olish, hoziri-yu huzuri, o'zimning ishim bitsa bo'ldi-da, o'zga bilan nima ishim bor, degan kayfiyat bizga to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, gap bizdan keyin shu yurtning chirog'ini yoqib o'tiradigan bolajonlarimiz taqdiri ustida ketayapti.

Vaziyatning murakkabligi shundaki, bugungi kunda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va ziddiyatlar faqat saltanatlar, xalqlar va shaxslar o'rtasida emas, balki har birimizning qalbimizda, ongimizda kechmoqda¹. Ya'ni bu muammolar faqat yosh avlodgagina taalluqli emas. Dushman ochiq-oydin o'zini ko'rsatmaydi: siz maxsus kabel orqali berilib kino ko'rib o'tiribsiz, yoki internet orqali muayyan saytlardagi ma'lumotlar bilan tanishayapsiz, ko'chada turli reklamalar diqqatingizni tortayapti, ehtiyot bo'ling, sizni kerakli yo'nalishda “tarbiya” qilishayapti, o'z qarashlarini turli vositalar bilan ongingizga singdirishayapti. Shunday, “ular ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida ish ko'radi.” Biz esa sal g'aflatga berilsak, ongimizdagi o'zgarishlarni o'zimiz ham payqamay qolamiz. Go'yoki hech kim bizga tajovuz ham qilgani yo'q, majbur ham qilgani yo'q, biz o'z ixtiyorimiz bilan “mustaqil” ravishda shu “xulosa”ga keldik. Bu yerda ta'sir o'tkazishning shunday makkorona usullari qo'llanmoqda-ki, uncha-muncha odam g'aflatda qolishi hech gap emas. Aslida imonli, e'tiborli inson bunday makru hiylalarni juda oson bilib olsa bo'ladi – ular barchasi insonlar ongining eng tubiga joylashgan biologik (hayvoniy) instinktlarni qo'zg'ashga qaratilgan. bunday filmlarda eng ezgu niyatlar ham qo'lda avtomat bilan amalga oshiriladi, eng ijobiy qahramonlar ham shahvatga beriladi, oddiy hazillar ham o'zini hurmat qilgan inson uchun haqoratli holatlar shaklida yoki hayosiz iboralarda ifodalanadi.

“Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, - xulosa qiladi Prezident, - bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, o'ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi”².

¹ Маънавий юксалиш йўлида. Т., 2008. 40-41-б.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият. 2008. 14-бет.

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odob-u axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiatcha, mehnatcha, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki adolat tuyg'usi haqida yozilgan asarlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki adolatga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur qilish o'ta soddalik bo'lur edi. Har bir inson Vatan, millat, adolat timsol-tushunchalarining o'z ruhida poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zgalar ibratida sinashi, bu yo'lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko'nglida mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli yo'llar, vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) va izchil yondashuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

“Bizning ulug' ajdodlarimiz, - deb yozadi Prezident, - o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli deb bilaman”¹.

Ma'lumki, dunyodagi barcha mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yetakchi o'rin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye vositalari har bir davlatda omma bilan xokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, xaqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy – siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynaganligi uchun ham ularga to'rtinchi hokimiyat tusini berish ommalashgan. Davlat boshqaruv organlari demokratiyaning muhim tayanchi bo'lganligi uchun ham ommaviy axborot vositalari bilan maslahatlashishga, takliflarini e'tiborga olishga majburdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida «ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardurlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi», deyilgan.

Televideniyeining dolzarb vazifalaridan biri bugungi murakkab mafkurviy jarayonlarni ilmiy – amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimiz hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy hurujlarning mohiyatini ochib berishdan iboratdir. Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 71-бет.

asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini singdirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Agarda fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslari mustahkamlansa, ular o'z fikriga ega bo'ladi va turli ma'naviy tajovvuzlarga qarshi sobit tura oladi.

Televideniening ta'sir kuchi unda beriladigan materiallarning xarakteriga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, berilayotgan materiallarning tezkorligiga, tahliliy darajasiga alohida e'tibor beriladi. Televidenie ko'rsatuvlarida materiallar ayni paytda qanday auditoriyaga mo'ljallangani bilan ham ajralib turadi hamda iste'molchining yoshi, jinsi, bilim darajasi, dunyoqarashi, milliy, diniy mansubligi kabi omillarini hisobga olgan holda tuziladi.

Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamlarga ham aqlan asoslangan (ratsional), ham emotsional (hissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotlar tez ta'sir qiladi. Bunda auditoriya xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, o'qimishli, tushungan odamlar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosli ma'lumotlarni tez qabul qilib, unga ishonsa, kichik yoshlilar, ma'lumot darajasi pastroq shaxslar ko'proq yurakka yaqin, emotsional ma'lumotga o'ch bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari - eng asosiy, qudratli va ta'sirchan targ'ibot quroli hisoblanadi. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Totalitar tuzumda ommaviy axborot vositalari axborot uzatish vositasi va yakka mafkurani singdirish quroli bo'lib xizmat qilganligi yaxshi ma'lum. "Majburiy yakka fikrlash" davri deb atash mumkin bo'lgan bu pallada ommaviy axborot vositalarida hayot faqat yorqin bo'yoqlarda tasvirlanib, muammolar haqida gapirilmay edi. Chunki o'sha paytda muammolar va illatlar haqida gapirish - kommunizm singari "benuqson" va "mukammal" tuzumga xalqning ishonchini pasaytirib yuborishi mumkin edi. Yakkayu-yagona partiya, yagona mafkura va yakka fikrlash siyosati har qanday plyuralizمنى, fikrlar xilma-xilligini va, ayniqsa, g'oyalar xilma-xilligini mutlaqo inkor qilar

edi. Barcha jurnalistlar sobiq Markazdagi “mutassaddi rahbarlar”ning og‘zini poylab, buyrug‘ini kutib, ularning ko‘rsatmasiga qat‘iy amal qilgan holda faoliyat yuritir edi. Afsuski, ayrim kishilar ishga ana shunday yondashishdan xali-xanuz voz kecha olmayaptilar, o‘sha davrlardan qolgan ayrim eski qolip va andozalardan qutula olmayaptilar.

Hayotiylik - bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga qo‘yilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko‘rsatishi, maqtovlardan iborat bo‘lishi targ‘ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko‘rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bo‘laverishi tabiiy. Bu – isbot talab qilmaydigan aksioma. Shunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o‘rganish kerak. Ularning borligini ko‘rib, o‘zini ko‘rmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirish mumkin. Demak, muammolarni o‘z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim.

Ta’kidlash joizki, targ‘ibotning negizida faqatgina g‘oyaga ishonch emas, g‘oyani targ‘ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. Shu bois, maqtash targ‘ibotning yagona va hatto eng to‘g‘ri usuli ham emas. Demak, mafkurani hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ‘ib qilish mumkin emas.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylantirish muammosi yuzaga qalqib chiqmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to‘laqonli bo‘g‘iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta’sirchan vositaga aylantirish vazifasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlash masalasiga davlat darajasida e’tibor berilmoqda, jurnalist-kadrlarni o‘zimizda tayyorlash bilan qanoatlanmay, bu soha mutaxassislarining xorijda ta’lim olishlaridan mablag‘ ayalmayotir. Ko‘rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratilgan.

G‘arbda ommaviy axborot vositalariga qo‘pol bo‘lsa ham jamiyat manfaatlarini “qo‘riqlovchi ko‘ppak”, deb nisbat beradilar. Yetuk demokratik davlatlarda ular jamiyatning “ko‘zlari”, “quloqlari” vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko‘tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan.

Ta’kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qarama-qarshi nuqtai nazarlardan iborat

bo'lgan dasturlarni yaratish, chiqishlarda muqobil fikrlar to'qnashuvig erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchili. fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining islohoti "g'oyalar bozori"da xali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Lekin o'rinli bir savol tug'iladi: bu "bozor" har qanday g'oyalar uchun ham ochiq bo'lishi kerakmi? Yo'q, albatta. Ekstremistik nuqtai nazarlar g'ayriinsoniy tabiatga ega fikrlar va qo'poruvchilikka chaqiruvchi g'oyalarga bu "bozor"da o'rin yo'q. Lekin jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, bunyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovonroq qilishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar, taklif va tavsiyalar bu "bozor"da bemalol raqobat qila olishlari kerak.

Biz demokratiyani qanday tushunsak, ommaviy axborot vositalariga ham shunday vazifalarni yuklaymiz. Biz demokratiyani mustaqillik erkinlik va mas'uliyat deb tushunar ekanmiz, ommaviy axborot vositalaridan ham mustaqillik, erkinlik va mas'uliyatni kutamiz. Demak jurnalistlar bu tushunchalarini anglashi, ularga ehtiyoj sezishi, ularni qadrlashi, ulardan foydalana bilishi va ular uchun kurashishi zarur.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqolol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesishi va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor: "Har qanday puch g'oya, uydirma xaftasiga uchi martadan to'rt yil davomida takrorlansa - "haqiqat" tayyor bo'ladi - odamlar unga chippa-chin ishonadilar".

Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'z singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida ongga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demak, insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p harajat talab

etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon to'kislarni keltirib chiqarmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bunday informatsion qo'poruvchilikdan maqsad – mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishdan iborat. "Milliy istiqlo'l g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi ba'zi fikrlar ham bugungi hurujlarning maqsadini oydinlashtiradi. Ushbu risolada aytilishicha, geopolitik maqsadlar – davlatning o'zga hududlarda o'z mavqei va ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosatdir. Ochig'i, bu ta'rif ayrim ommaviy axborot vositalarining faoliyati nimaga yo'naltirilganligini fosh etib qo'ymoqda.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: "Ommaviy axborot vositalari – terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi", degan. Bu gapning mag'zini chaqqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq o'ylab ko'rsak-chi? Aslida terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan o'ldirish orqali millionlarda qo'rquv va dahshat uyg'otishga intiladi. Demak, ularning maqsadlari - o'ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik, qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlariga haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo'rquv, dahshat, himoyasizlik hissini yanada kuchaytiradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksiltarg'ibotni kuchaytirish zarurati tug'iladi.

Aksiltarg'ibot «g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish» tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g'oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Xususan:

- horijiy jurnalistlarning hukumat siyosatini buzib talqin qiluvchi chiqishlariga;

- diniy aqidaparastlarning tanlagan yo'limizga qarshi mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlariga;

- rivojlangan davlatlarning o'z mafkurasi hukmronligini o'rnatish yo'lidagi urinishlariga;

- axborot xilma-xilligi sharoitidagi informatsion tajovuzlarga;

- odamlar ongida saqlanib qolgan kommunistik mafkuraning asoratlariga qarshi faol kurashish zarur.

Aksiltarg'ibotni tashkil etishda tezkorlik, qat'iyatlilik, hujumkorlik murosasizlik talab qilinadi. Bu borada tayyorlangan materiallar dalilla bilan isbotlangan, haqqoniy, ommabop va barcha uchun tushunarli bo'lishi shart. Aksiltarg'ibot oldini oluvchi va fosh etuvchi shakllarda amalga oshiriladi. Oldini oluvchi yo'nalish asosan tarbiyaviy xarakterga ega bo'ladi. Bunda:

- fuqarolarning pozitsiyalarini shakllantirishda g'oyaviy raqiblardan o'zib ketish;

- insonlarni begona g'oyalarning noto'g'riligini fosh etishga va ularning dalillarini rad etishga o'rgatish;

- pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga nisbatan xushyorlikni oshirish;

- yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Aksiltarg'ibotning fosh etuvchi yo'nalishida:

- g'oyaviy dushmanlar tomonidan e'lon qilingan fikrlar va baholarni rad etish;

- «mafkuraviy urush» olib borayotgan taraf tashviqotining yolg'on va soxta mohiyatini ochib berish;

- mafkuraviy bosim ko'rsatuvchi guruh yetakchilarini obro'sizlantirish;

- raqiblarning ruhini susaytirish orqali ularning harakatlarini kuchsizlantirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Aksiltarg'ibotning har ikkala ko'rinishi o'zaro bog'liqlikda olib boriladi. Insonning ongi va qalbi uchun shiddatli kurash ketayotgan hozirgi paytda aksiltarg'ibot bilan maxsus shug'ullanish zarurligi shak-shubhasizdir.

1.4. Ma'furaviy immunitet - xavfsizlikning ma'naviy asosi

Dars o'tish metodikasi:

Ushbu mavzuni o'tishda turli xil pedagogik texnologiyalardan (jumladan, "Qarorlar shajarasi" va "Galereya") foydalanish tavsiya etiladi.

"QARORLAR SHAJARASI"

Texnologiyaning maqsadi: Tinglovchilarni berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish, munozara madaniyatini o'rgatish, o'z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlantirish.

O'tkazilish tartibi: Ishtirokchilar guruhlariga bo'linadigar. O'zlariga topshirilgan topshiriqni vatman qog'ozlarga yozadilar, ya'ni ma'lum tushunchaga ta'rif beradilar, u yoki bu muammoning turi, salbiy oqibatlarini, ularni bartaraf etish yo'llari va yakunida guruh xulosalarini bayon etadilar.

Himoyada har bir guruhdan bittadan ishtirokchi so'zga chiqadi.

Kutiladigan natija:

Zamonning global muammolari

Muammo turi	Kelib chiqish sababi	Hal etish yo'llari
-------------	----------------------	--------------------

Guruh xulosasi:

Kutiladigan natija: Tinglovchilarni jamoaviy ishlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga, ma'lum muammo haqida, uning yechimi haqida fikr doirasining kengayishiga erishiladi.

"GALEREYA"

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchilarni erkin, mustaqil fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish, Sharqona odob qoidalari haqida tushunchalarini kengaytirish, yaxshi insoniy fazilatlarini shakllantirish.

O'tkazilish tartibi: tinglovchilar guruhlariga ajratiladi, har bir kichik gurug'ga kartochkalar tarqatiladi, yozma bayon qilinadigan varaqlar topshiriladi. Tinglovchilar navbati bilan o'zlari tayyorlagan ma'lumotni badiiy, musiqiy, she'riy qilib taqdim qilishlari mumkin.

Kutiladigan natijalar: Tinglovchilar ni yakka va jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyati ko'nikmalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Ma'furaviy immunitetni shakllantirish – jamiyatning eng muhim vazifasi yoshlarning milliy his-tuyg'ulari, maqsad va intilishlari,

ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy-ahloqiy darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan dolzarb hodisadir¹.

Prezident I.A.Karimov mafkura jabhasiga oid muhim fikrlarni bildirib, Jumladan, «Mintaqamizda «Hizbut tahrir» kabi ekstremistik, ayirmachilik tashkiloti faoliyati tobora xavfli tus olmoqda. U konstitutsiyaviy dunyoviy davlat tuzumiga qarshi chiqib, o'rta asrlardagi islom halifaligini tuzish to'g'risidagi bo'lmag'ur g'oyani targ'ib qilmoqda... Lekin, taassuf bilan tan olish kerakki, bu yovuz kuchga qarshi kurashdagi harakatlarimizda hamjihatlik va izchillik ko'zga tashlanmayapti...»², degan edi.

Milliy mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqarodagi mustaqillikning siyosiy mohiyati, Prezident Islom Karimov asarlarida ko'tarilgan siyosiy g'oyalar, islohotlar yutuqlari va muammolari, ichki va tashqi siyosatga doir chuqur bilimlarga tayanadi. Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetini besh darajaga bo'lib o'rganishi, baholashi va shu asosda takomillashtirishi mumkin: Bunda:

- birinchi, ya'ni mafkuraviy immunitetning quyi darajasi - shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas; buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga befarq, loqayd;

- ikkinchi darajasi - bilimlar bor. lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas;

- uchinchi darajasi - mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy; shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi;

- to'rtinchi darajasi - asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi; ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immuniteti shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi;

- beshinchisi - oliy daraja - mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bimalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo, hamma joyda faol fosh qila oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda bormaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, engil yo'llar bilan to'kis hayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik, so'z va ish orasidagi

¹ Куронов М. Маънавият ва янгиланаётган жамият. Мафкуравий таҳдид ва ёшлар гарбияси - Т., "Академия", 2008. 11-бет.

² Хайрли ният самарасиз бўлмайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Шанхай ҳамкорлик ташкилоти САММИТдаги нутқи //Халқ сўзи, 2003 йил 3 июнь.

tafovut, milliy g'ururning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim.

Ayni paytda ba'zi yoshlarimiz turli yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganini ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Shunday ekan, yoshlarimiz yot mafkuralarning "mehrionligi", "xolisligi", "do'stonaligi" ortida nima yotganini chuqur anglab olishi lozim. Ya'ni, ularning zahirida muntazam o'zgarib turuvchi jonsarak aqidaparastlik targ'iboti turganini tushunib borish kerak.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz bir paytlar baland tepaliklarga chiqib, olov yoqib, yog'iyning bostirib kelayotganligidan bir-birlarini ogoh qilishgan, ya'ni axborot uzatishgan. Bugun esa manzara mutlaqo boshqacha. Taraqqiyot shiddatli tarzda ildamlab borayotgan hozirgi zamonda kichkinagina bitta xonada o'tirib, bir necha daqiqalar ichida butun dunyoga turli xildagi axborotlarni tarqatish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, olam va odam yuksak taraqqiyot asnosida juda o'tkir, ta'bir joiz bo'lsa, global muammolar bilan ro'paro kelmoqda¹.

Jamiatning o'z ertasi va kelajagiga ishonchi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Buning zahirida millat baxt saodati yo'lida, demak, har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat - mafkuraviy tarbiya yotadi. Mafkuraviy tarbiya deganda gap, «kishilar dunyoqarashini boshqarish haqida emas, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish»ni ham anglatadi.

Mafkuraviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o'zini himoya qiluvchi ham - g'oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Bu - mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Demak, qaysi tomonning yengishini pirovard natijada ilmga asoslangan targ'ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi - targ'ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin. Shu sababli «Milliy istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanish uchun qator talablarga javob berishi zarur. Ana shunday talablardan biri - har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishidir².

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, bu kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish,

¹ Эшмуродов А. Ахборот хуружи ва миллий манфаат. – Т., "Глобаллашув ва ахборот хуружи" мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2007, 98-бет.

² Миллий истиқлол гоёси; асосий тушунча ва тамойиллар. – Т., Ўзбекистон, 2000, 45-46-бетлар.

³ Миллий мафкура гоё ва илмий амалий марказ. Designed Md.

zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. 1999-yil fevral, 2004-yilning martidagi Buxoro va Toshkent shahrida sodir etilgan terroristik voqealardan to'g'ri xulosa qilish muhim. Har bir davlat, jamiyatning qudrati uning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tayanadi. Ya'ni jamiyat, millat o'z g'oyasida mustahkam tursa, ikkilanmasa, har qanday dushman qo'llashi mumkin bo'lgan mafkuraviy tahdidlaridan qo'rqmasa, bunday millatni yengish mumkin emas.

Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti hech bir o'zbekistonlikni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki ular o'z, yagona Vatanining tarixi qanday mashaqqatli, azobli asrlarni o'tkazib, mustaqillikka erishganligini yaxshi biladilar. Shunday ekan, Vatan - O'zbekistonning posboni ham millatidan, dinidan, tug'ilgan joyidan, kasbu-yoshidan qat'iy nazar uning o'zbekistonlik bo'lishidir. Demak, mamlakatimizning xavfsizligi uchun eng birinchi kafolat — o'zbekistonliklarning milliy istiqlol g'oyasi atrofidagi jipsligidir. Shu tariqa milliy g'oya bizni o'tmishimiz, hozirgi hayotimiz va kelajagimiz bilan bog'lab turadi. Shu sababli O'zbekiston xalqining milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan immuniteti - Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanadi.

XXI asrda yashayotgan zamondoshlarimiz uchun axborotning ahamiyati suv va havoning ahamiyatidan kam emas. «Dunyo – axborot makoni» tushunchasi ong va shuurlarga shu qadar chuqur singib ketdiki, dunyo hamjamiyatining haqli a'zosi – sub'ektiga aylanish istagidagi har qanday davlat va shu davlat fuqarolari mazkur axborot makonidan mustahkam o'rin egallashining ahamiyatini so'z bilan ta'riflash qiyin¹.

O'tgan asrning so'nggi o'n-o'n besh yilida dunyo miqyosida yuz bergan olamshumul tarixiy o'zgarishlardan kelib chiqib, hozirda biz yashab turgan XXI asrga kamtargina «Axborot asri» deya nihoyatda munosib ta'rif berildi. XX asrning so'nggi choragida ham dunyo axborot oqimining shiddati kuchli edi, bu shiddat yil sayin kuchayib bordi. Insoniyat navbatdagi asrga axborot oqimi tezligida sakrab o'tdi va yangi asr uni nafaqat yanada shiddatliroq, balki axborot oqimi axborot to'foniga aylangan holda qarshiladi. Ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya imkoniyatlari shu qadar rivojlanib ketdiki, axborot oqimi zo'raygani ustiga endilikda u chek-chegara bilmay qoldi.

O'zbek matbuotining demokratlashuvi dunyo axborot makonining ana shu tariqa globallashuvi davriga, «jahon jurnalistikasi», «Sarhadsiz

¹ Дустмухаммад Хуршид. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. – Т., Ўзбекистон, 2005. 24-25-бетлар.

jurnalistika» tushunchalari taomilga dadil kirib kelayotgan davrga to'g'ri keldi.

Madaniyatli insoniyat dunyo xalqlarining bir butunligini, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning eng oqil usuli sifatida xalqaro qonunchilik tajribasini yaratgan. Hech bir inson bir-biriga o'xshaganidek, davlatlar, mamlakatlar, ularda yashayotgan xalqlar ham mutlaqo o'ziga xos jihatlariga boy. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, harbiy va iqtisodiy jihatlardan bir-biriga mutlaqo o'xshamaydigan, taraqqiyotning turli bosqichlarida yashayotgan mamlakatlar ichki shart-sharoitlaridan qat'i nazar, global hamkorlik munosabatlarining bir sub'ekti sifatida umumjahoniy jarayonlarda ishtirok etmasligi mumkin emas. Munosabatga kirishish uchun esa muayyan umumiy qonuniyatlarga, bitishuv, kelishuv va ahdlashuvlarga bo'ysunishga to'g'ri keladi. Bunday munosabatlarni tartibga solib turuvchi, umumadolat va umummuvozanatni ta'minlovchi xalqaro hujjatlar esa nihoyatda ko'p¹.

Axborot globallashuvi muammolar muammosi darajasiga ko'tarildi. Buning o'ziga xos ob'ektiv sabablari, omillari bor. Chunonchi:

- dunyoda eng insoniy jamiyat barpo etishning birdan-bir oqilona yo'li huquqiy-demokratik davlat qurish ekanligini tushunish har qachongidan kuchaydi;

- huquqiy-demokratik jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo'lmay qoldi;

- taraqqiy etgan yetakchi mamlakatlar matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg'or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari osonlashdi va ko'paydi;

- dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvoli va darajasini xalqaro miqyoslarda kuzatish, bahosini berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odat tusiga kirdi.

Sanab o'tilgan holatlar ham dunyoning yaxlit axborot makoniga aylanishini jadallashtirmoqda.

Globallashuv jarayonining barcha ijobiy va muqarrar fazilatlarini e'tirof etgan holda uning nihoyatda hushyorlik va zukkolik bilan o'ylab ko'radigan jihatlar ham oz emas. Masalan, globallashuv shiddati soyasida «milliylik uzoqqa bormaydi» qabilidagi qarashlar har qanday

¹ Дустимуҳаммад Хуришд. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришнинг демократик андозалари. – Т., Ўзбекистон, 2005, 25-бет

millat jurnalisti qatori o'zbek jurnalistini ham jiddiy mushohadaga undaydi. Ko'plab sohalarda global hamkorlik munosabatlariga faol qo'shilgan davlatlar ham OAV tizimining globallashuvi g'oyasini qo'llab-quvvatlashga oshiqmayotganliklari o'zbek jurnalistlarini ham yana bir karra hushyorlikka undaydi.

Ana endi haqli ravishda savol tug'iladi: mana shunday sharoitda ichki va tashqi axborot makonidan joy olish, unga egalik qilish, bu makonda o'z so'ziga ega bo'lish qay tariqa amalga oshadi? Prezident ta'kidlagan «mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborot olish» tizimini yaratish uchun ham mazkur savolga javob izlashimizga to'g'ri keladi. Jamiyatni bir tirik organizm deb tasavvur qilsak, ommaviy axborot vositalarini organizmdagi qon tomirlariga, axborotni esa – mana shu qon tomirlarida to'xtovsiz harakatda bo'ladigan qonga o'xshatish mumkin. Tiriklik va sog'lomlikning asosiy sharti esa – barcha a'zolarining, hujayra va to'qimalarining qon bilan yetarlicha va uzluksiz ta'minlanishida ko'rinadi. Zamonaviy insonning ma'naviy-mafkuraviy, fuqaro sifatidagi tirikligi, sog'lomligi esa uning axborot bilan nechog'li to'kis ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Respublikamizdagi ichki axborot makonini yaratuvchi asosiy vositalar – televideniye, radio, gazeta, jurnal. Bunga aholining umumiy soniga nisbatan ancha oz bo'lsa-da, asta-sekin ko'payib borayotgan axborot-kommunikatsiya vositalarini, ya'ni Internet tarmog'i, kompyuter, telefon, uyali telefon, faks va hokazolarni qo'shish mumkin. Shularning bari salkam 26 millionlik aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondira olayaptimi?

Aholining aksariyat qismi axborotni, asosan, televideniye va radiodan oladi. Respublika aholisining necha foizi televizor ko'rishi va radio tinglashidan qat'i nazar, uning qamrovini qoniqarli deya olmaymiz. Qolaversa, ko'rish, eshitishdan ko'ra, bevosita o'qish orqali olingan axborot dunyoqarashni ko'proq boyitadi, samarali bo'ladi.

Prezidentimiz hozirgi davrdagi eng hayot-mamot masalasi bo'lgan ma'naviyatimizga tahdidning o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligini, globallashuv jarayonlarida ma'naviyatga tahdidning yanada kuchayganligini, tahdid solayotgan kuchlarning maqsadi Vatanimiz boyliklariga ega bo'lish ekanligini hamda ularni haratlariga, fikrlariga qarshi fikr, g'oyalarga qarshi g'oya bilan kurash olib borish zarurligini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga asarda insonlar qalbiga yo'l topish va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi yo'lida jasorat ko'rsatish Vatanimiz taraqqiyotining poydevori ekanligini aniq misollarda tahlil etadi.

Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi.

Mafkuraviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o'zini himoya qiluvchi ham - g'oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Bu - mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Demak, qaysi tomonning yengishini pirovard natijada ilmga asoslangan targ'ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi - targ'ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin. Shu sababli «Milliy istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanish uchun qator talablarga javob berishi zarur. Ana shunday talablardan biri – har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishidir»¹.

Narkotik moddalar ishlab chikarish va ular bilan savdo qilish. Ushbu jinoiy biznes yaratib beradigan juda katta boylik orttirish imkoniyatlari uning ishtirokchilarini xalqaro huquq normalari bilan ham, milliy qonunlar majmui bilan ham, ayniqsa, "oq ajal"ning halokatli oqibatlarini bilan ham hisoblashmay, hamma ishni qilishga majbur etmoqda.

Yashirincha qurol sotish. Bu "biznes" ham mintaqaviy mojarolar va mahalliy urushlarning to's-to'polonidan foydalanib qoluvchilarga katta daromad keltirmoqda. Bunday korchalonlar uchun qurolli qarama-qarshilikni davom ettirish va keskinlikni saqlab turish qurol-yarog'larning yashirin bozorini kengaytirish uchun eng yaxshi shart-sharoit ekanligini yana bir bor ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak.

Yashirincha qurol sotish xalqaro terrorizm deb atalmish jinoiy hodisa bilan birga yuradi, ba'zan esa uni keltirib ham chiqaradi. O'zgalar qonini to'kish hisobiga mo'may daromad olishni istovchilar batamom yo'q bo'lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borgan o'xshaydi. Bu toifaga kiruvchi "bizneschilar" uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo'ladi.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T., "Uzbekiston", 2000, 45-46 betlar.

Nihoyat, xalqaro jinoyatlarning yana bir turi SSSR parchalanib ketganidan keyin ayniqsa rivojlandi. U ayrim tuzumlar va tashkilotlarning ikki-yoqlama foydalanishga mo'ljallangan texnologiyalarni hamda energiya manbalarini qo'lga kiritishga intilishi bilan bog'liqdir. Ommaviy qirg'in qurolini ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnologiyalar sivosiy va hatto jinoyatchi vosvoslar qo'lga tushib qolishi mumkinligidan kelib chiqadigan oqibatlarni tasavvur qilishning o'zi dahshatli.

Xalqaro jinoyatchilikning shu kabi barcha turlari nafaqat alohida olingan bitta mamlakatga real tahdid solmoqda, balki keng ko'lamdagi xavfsizlikni saqlab turish istiqbollari ham shubha ostida qoldirmoqda. Biz, O'zbekiston jamoatchiligi, Markaziy Osiyo mintaqasi ana shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqaro jinoyatchi uyushmalar uchun "shirin luqma" ekanligini yaxshi tushunamiz¹. Bu mintaqa jahon kommunikatsiyalari tutashgan joy bo'lib, undan narkotik moddalar bilan savdo qiluvchi korchalonlar foydalanmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Mintaqada qonli mojarolar davom etmoqda, unda shu qadar ko'p qurol-aslaha to'plangan, bu hol qurol bilan yashirincha savdo qiluvchilar va Markaziy Osiyoni xalqaro terrorchilarni sinovdan o'tkazib oladigan maydon deb hisoblaydiganlarning juda havasini keltirmoqsa. Mintaqada katta miqtsorda zaxiralar, shu jumladan parchalanish xossasiga ega bo'lgan manbalar ham to'plangan. Yuksak texnologiyali, shu jumladan ikkiyoqlama foydalaniladigan texnologiyali ishlab chiqarishlar mavjud. Bu hol unga halol tadbirkorlarning gina emas, shu bilan birga yirik jinoyatchi birlashmalarning ham qiziqishini orttirishi shubhasiz.

Shunday qilib, jinoyatchilik, korrupsiya bizning o'z xavfsizligimizga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahlid soluvchi real manbadir. Binobarin, mazkur hodisaga qarshi kurash masalalari birgina bizga taalluqli emas. Shuning uchun ham biz jinoyatchilik haqida butun jahon hamjamiyati qayg'urmog'i lozim, deb hisoblaymiz. Suveren O'zbekiston xalqi va rahbariyati esa ular bilan faol hamkorlik qilishga tayyor va buni dunyoni poklash, uning xavfsizligini ta'minlash ishiga qo'shilgan hissa, deb biladi².

So'nggi yillarda bizning diyorimizda ham taraqqiyotimiz, osoyishtaligimizni ko'rolmaydigan «vahobiylik» va «hizbut-tahrir» kabi oqimlarning guruh va to'dalari paydo bo'lib qoldi. Bunday to'dalar

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., Ўзбекистон, 1997. 214-бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., Ўзбекистон, 1997. 234-бет.

o'zlaricha masjidlarda g'avg'o ko'tarib, o'tish davrining qiyinchiliklaridan foydalanib, ayrim yoshlarning ongini zaharlamodalar. Mustaqillikning bergan erkinligini suiiste'mol qilmoqdalar. Bu mutaassib dindorlar o'zlarini «vahobiy» yoki «dinni tozalovchilar», «fundamentalistlar» deb yuritib, aslida esa birinchi navbatda islomning o'ziga zarba bermoqdalar. Vahobiylar bir yarim ming yillik ilm-fan, madaniyat tarixidan voz kyechish, Imom Buxoriy, Imom G'azzoliy, Imom Abu Xanifa, Burxoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Navoiy, Jomiy, Ulug'bek, Bahouddin Naqshband va boshqa o'nlab mutafakkirlar, so'fiylar, olimlar merosidan voz kyechish, ularning asarlarini yoqib yuborishni, maqbaralarini buzib tashlashni tavsiya qilmoqdalar. Ular, umuman, inson aqli, inson qalbi bilan yaratilgan jamiki ma'naviy boyliklarni uloqtirib tashlashga da'vat etmoqdalar. Axir bu vahshiylik, nodonlik, johillikning o'ziku. Ma'naviyatli va ma'rifatli kishi, buni mutlaqo qabul qilmaydi.

Vahobiylilik bizni orqaga, jaholatga tortadigan, islomni, islom ahlini buzadigan xavfli oqim. «Dinni tozalash», «sof dinga qaytish» niqobi ostida tashviqotlar olib borib, odamlarni tahlkaga solish, qonli jinoyatlar qilish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo'yayotganlardan milliy qadriyatlarimizni avaylab - asrashimiz lozim.

Diyorimizda din niqobi ostida ish ko'rayotgan ekstremistlar, aqidaparastlar mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi borib, hokimiyatni egallash va O'zbekistonda Islom davlati qurish, xalqni qo'rquvga solib, hukumatga ishonchsizlik uyg'otish uchun turli jinoyatlar va terroristik harakatlar sodir etish yo'li bilan el tinchligini buzishga urinmoqdalar. Ularning asl maqsadi hukumatparastlik, ya'ni davlatni qo'lga olishdan iborat. Mustaqil yurtimizda ularga o'z vaqtida zarba berildi va ularning payi qirqildi.

Xalqimiz endi – erkinligini qo'lga kiritgan, o'zligini anglab yetgan bir zamonda allaqanday kimsalarga ergashib yana jaholat va qullik tuzog'iga qaytadimi? Albatta yo'q. Ammo hamma gap har qanday tahdid yoki tahlka oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda, ogoh va sergak bo'lishda. Ayniqsa yoshlarimizni ularning zararli ta'siridan asrab qolish hozirgi tarbiya ishimizning asosiy yo'nalishi bo'lib qolishi lozim. Yoshlarimizning doimo va har on ogoh va yana ogoh, sergak bo'lishlari zamon talabi ekan, yoshlarimiz ongiga mustaqillik g'oyasini chuqur singdirishimiz lozim. Toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib

yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastning «da'vati» ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Muhtaram Prezidentimizning «Turkiston-press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida ta'kidlaganlaridek: «Biz o'z dinimiz va e'tiqodimizdan hech qachon voz kechmaymiz. Shu bilan birga muqaddas dinimiz sha'niga dog' tushirmoqchi bo'lgan kimsalar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz. Men O'zbekiston rahbari sifatida qandaydir yovuz kuchlar islom dinimizni, ota-bobolarimiz e'tiqodini, musulmon fuqarolarimizni tahqirlashiga, jamiyatimizga xavf tug'dirishiga hech qachon yo'l qo'ymayman»¹.

Prezidentimiz aytganidek, har birimiz hamisha, har soniyada ogoh bo'lishimiz lozim. Bu mustaqil yurt har bir fuqarosining muqaddas burchi bo'lmoq'i lozim. «...muqaddas dinimiz sha'niga dog' tushirmoqchi bo'lgan, undan g'arazli siyosiy maqsadlarda foydalanishni istaydigan kimsalar va kuchlar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz»².

Yurtimizda keyingi vaqtlarda ro'y berayotgan ayrim salbiy hodisalar, nojo'ya xatti-harakatlar, yozuv ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda³.

Har bir fuqaro shuni anglab etishi kerakki, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o'ziga xos va mos yo'li bo'lgani kabi madaniy-ma'naviy rivojlanishida ham o'z yo'li bor. Bu o'ziga xoslikni dinga, diniy qadriyatlarga munosabatimizda, ulardan ma'naviy tarbiyada foydalanishimizda ham ko'rishimiz mumkin. Bu yo'l Prezidentimiz asarlarida bayon qilib berilgan. Uning mohiyati, mo'tadil dindorlik, islom ma'rifatini rivojlantirish, ichki-botiniy olamni poklab, Ollohni dilda saqlab, aqlu tafakkur, ilmu irfon bilan kamolot sari borish, o'z merosiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam olg'a borish.

Xulosa shuki, mustaqillik bergan hidoyat yo'lini turli unsurlardan asrash, ularga berilmaslik lozim.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan *diniy aqidaparastlik* va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgan harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va g'arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir - dindandir niqob sifatida

¹ Каримов И.А. Оллоҳ калбимизда, юрагимизда. «Халқ сўзи» газетаси, 1999 йил 6 март сонн.

² Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – шировад мақсадимиз. 26-бет.

³ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 9-бет.

foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz"¹.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik - turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

2001-yil 11-sentyabrida mash'um voqealar amalga oshirilgandan so'ng, ommaviy axborot vositalari orqali, oddiy kishilarning suhbatlarida terrorizm haqida ko'p gapirila boshlandi.

Terrorizm so'zi, xalqaro terrorizm tushunchasi kecha yoki undan avval paydo bo'lmagan bo'lsa ham, uning tahdidi, ayniqsa, Yevropa uchun endi-endi tushunila boshlandi. Bu borada, siyosatchilar, siyosatshunos olimlar, iqtisodchilar ham so'z yurita boshladilar. Demak, biz barcha uchun katta tahdid solayotgan terrorizm, insoniyatning dushmani haqida, uning yovuz niyatlari va kerak bo'lsa basharasini yaqindan bilishimiz lozim.

¹ Каримов И.А. Асарлар. Т.6. 59-бет.

1.5. Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar va ularning oldini olish chora-tadbirlari

Dars o'tish metodikasi:

Mavzuni mustahkamlash uchun “B-B-B” chizmasi usulini qo'llash maqsadga muvofiq.

B-B-B chizmasi

Bilamiz	Bilishni xohlaymiz	Bildik
---------	--------------------	--------

Mavzu bo'yicha o'quvchilarga bilganlarini yozish taklif etiladi. O'quvchi daftariga “Bilamiz” - deb bilganini yozadi. Bunga 5 minut vaqq beriladi. Ushbu vazifa bajarilgach, guruh o'zaro bilganlarini bir-biriga aytib beradi, keyin hammaning fikrini umumlashtirib, 5 minut muhokama qilinadi. So'ngra har bir guruhdan bir kishi 3 minut ichida guruh nomidan taqdimot o'tkazadi. O'quvchilarga 3 minutda “Mavzu bo'yicha nimani bilmoqchisizlar?” savoliga javob yozish topshiriladi. Ular “Bilmoqchiman”- degan fikr yozadilar. Har bir guruhdan bitta o'quvchi guruhning fikrini umumlashtirib so'zga chiqadi. Keyingi bosqichda o'quvchilarga mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi. O'quvchilar matndan yangi bilganlarini “Bilib oldim”- deb yozadilar.

Mashg'ulotlarda bunday texnologiyalardan foydalanish asarda ilgari surilgan g'oyalarni o'quvchi yoshlar ongiga chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Hozirda «Hizbut-tahrir» tarafdorlari minglab begunoh kishilarning nohaq qoni to'kilsada, xalifalik barpo etilishini majburiy deb da'vat etmoqdalar. Ularning bunday hatti-harakatlaridan ko'zlangan maqsad konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan ag'darishdan boshqa narsa emas. Shu sababli ulardan sof islomiy qadriyatlarimizni, o'zbekligimizni (chunki Halifalik davlatida o'zbek degan so'z o'chirib tashlanadi, davlat tili - arab tili, poytaxt ham boshqa joylarda bo'ladi), ota-bobolar dini haqiqiy islomni himoya qilishga qodir bo'lishi muhim. Shunday lahzalarda beixtiyor olovqalb Cho'lponning vatanparvarona xayqirig'i esga tushadi: «...Ulardan bizga do'st yo'q... Bizning do'stimiz - o'zimiz! Bizning do'stimiz - millat! Ular - millat dushmanlari... Biz ularga dushman! Shuni unutmangiz!» (Kecha va kunduz). Millatni, Vatanni, ota-bobolarimiz iymonini, o'zbekligimizni, mustaqilligimizni himoya qilish har bir fuqaroning burchidir. Agar ularning ruhlarni chirqiratib, millatni, Vatanni din niqobidagi yovuz g'oyalardan himoya qila

olmasak, nima bo'ladi? Qaytib ozod bo'la olmaymiz. O'zbek ham bo'la olmaymiz, Vatanda begona bo'lamiz. Chunki, Halifaga o'z ota-bobosi udumlarini unutgan manqurtlar kerak. Ular halifaning paxtasini ekishi, terishi kerak. Ularning mehnatidan halifalikka oltinlar oqib borishi kerak. Halifa esa o'zi bu dunyo lazzatini suradi. Qullariga u dunyo lazzatlarini beradi. Aks holda halifalik g'oyasi bunchalik siyosiy maqsadlarni ko'zda tutmagan bo'lardi. Bu dunyo, o'tkinchi dunyo saodatiga qiziqmas, kurashmas edi. Toat-ibodat, besh vaqt namozga da'vat qilib qo'ya qolar edi. Shunday emasmi?!

«Hizbut-tahrir» - sunniylik doirasidagi diniy-siyosiy partiya bo'lib, 1952 yilda Quddus shahrida tashkil etilgan. Bu partiya falastinlik Taqiyiddin Naboxoniy (1909-1978) tomonidan, «Al-Ixvon al musliman»dagi Sayid Qutb bilan kelisha olmay qolganlaridan keyin tashkil etilgan.

1952-yilda Taqiyiddin Nabaxoniy tomonidan yer yuzining musulmon davlatlarida mavjud bo'lgan tuzumni o'zgartirib, «xalifalik» davlatini tuzish va bu maqsadni amalga oshirish uchun «Islom dini» niqobi ostida «Hizbut-tahrir» (Ozodlik) partiyasiga asos solinib, bu partiyaning idoraviy to'plamlari va boshqa qonunlari ishlab chiqilgan edi. Uning a'zolari yoshlarni diniy fanatizm va ekstremizm ruhida tarbiyalashning barcha usullari - da'vat, ishontirish, inontirish, varaqa va mish-mishlar tarqatish, halqa dars uslublarini qo'llab, fuqarolar o'rtasidagi, davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirishga harakat qildi. Ular go'yo faqat «haqiqiy» musulmonlar hokimiyatga kelsa, «islomiy tartib»ni o'rnatish uchun keskin va agressiv harakatlarga imkoniyat yaratiladi, deb o'ylaydilar.

«Sening xavfsizliging, sening huzur halovating, sening farovonliging uchun Vatan kerak bo'lsa, munosib fuqaro bo'ls».

K. Gelvetsiy.

Shaxsning mafkuraviy immunitetini, uning ijtimoiy-siyosiy faolligi, pozitsiyasini mamlakat, davlat uchun favquloddagi holatlarda kuzatish mumkin.

1999 yil 11 may. Yugoslaviyadagi Xitoy elchixonasi yoniga bomba tushdi.

Xitoy shaharlarida o'n minglab yoshlarning norozilik namoyishlari boshlandi. Odamlar ko'kraklariga «Men-nishonman! Meni ot» degan plakat-rasmlarni yozib chiqishdi. Boshqa mamlakatlardagi musofir xitoylar ham shunday namoyishlar uyushtirishdi. Xitoy yoshlarining milliy birligi, milliy oriyati, siyosiy, mafkuraviy birligi namoyon bo'ldi.

Milliy davlatchilik, vatanparvarlik, fidoyilikni o'zida mujassam qilgan Xitoy milliy xarakteri o'zini ko'rsatdi. Bu birlikka havas qilish kerak. O'zbek xarakterini millat, davlat, Vatan sha'ni daxlsizligi uchun istagan paytda namoyon bo'ladigan ishonchli fazilatlar bilan qurollantirish kerak¹.

Mafkuraviy immunitet shaxs tomonidan Vatan, millat uchun ko'ngilli, g'oyaviy asoslanib amalga oshiriladigan kundalik ishlarda namoyon bo'ladi. Bu faollik milliy birlik, ma'naviy yuksalishga xalaqit berayotgan sifatlar, yot qarashlar, milliy xavfsizligimizga ichki va tashqi tahdidlarga ochiq va mardona qarshi turishni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, - Elim, yurtim deb yashashning har bir kishida, jamoada, jamiyatda namoyon bo'lishini anglatadi. Bu esa milliy g'oyani amaliy kuchga aylantirish va buzg'unchi mafkuraviy ta'sirlardan aholini, yoshlarimizni himoya qilishning shartlaridan biridir. Zero «Fikr va so'z amaliyotga yo'naltirilganda ularning har ikkisi ham moddiyatga - narsaga aylanadi»².

¹ Куронов М. Янги конун зарур. // Миллий тикланиш, 2000 йил 7 март.

² Ван Ямин. //Хақиқат манзаралари: 96 мумтоз файласуф. Т.: «Янги аср авлоди», 2002.. 230-б.

II-BOB. Ma'naviy tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid

2.1. Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar

Dars o'tish metodikasi:

Ushbu mavzuni talabalarga tushuntirishda “Qiyosiy tahlil” metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

“Qiyosiy tahlil”

Texnologiyaning maqsadi: Bu usulda ishtirokchilar qiyosiy tahlil jadvalini to'ldirish jarayonida mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga erishadilar.

O'tkazish tartibi:

Globallashuvning oqibatlari:

Ijoiy	Salbiy
1. Xalqaro integratsiya	1. O'tkir mafkuraviy ta'sir
2. Hamkorlik aloqalari	2. Mafkuraviy tazyiq
3. Xorijiy investitsiyalar	3. Ma'naviy tahdid
4. Kapital va tovarlar almashinuvi	4. Mafkuraviy xuruj
5. Ishchi kuchining erkin harakati	5. Ma'naviy bo'shliq
6. Yangi ish o'rinlari	6. Xatarli tahdid
7. Axborot texnologiyalari	7. Axborot xurujlari
8. Ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishi	8. Ahloqiy buzqlik
9. Qadriyatlarining uyg'unlashuvi	9. Ommaviy madaniyat
10. Sivilizatsiyalararo muloqot	10. Egotsentrizm
11. O'zaro yordam imkoniyatlarining ortishi	11. Ma'naviy negizlarga bepisandlik, zo'ravonlik

Kutiladigan natija: Muammolarning kelib chiqish sabablari, tuzatish yo'llarini topish, mustaqil izlanishga, fikrlashga undaydi.

Prezident I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarining globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar faslida dunyoni tez sur'atlar bilan o'zgartirayotgan “globallashuv” hodisasining ko'lami va ta'siri bugungi kunda kengayib, kuchayib borayotgani ta'kidlanadi. “Shu ma'noda, — deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov, — globallashuv — bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”¹.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 111-бет.

Har qanday ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Asarda globallashuv davrida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulay imkoniyatlar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi kabi ijobiy jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Prezident I.A.Karimov globallashuv jarayonining ayni paytda mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasi sifatida turli siyosiy kuchlar manfaatlariga xizmat qilayotganini, ushbu jarayon orqali milliy qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlar yopirilib kirib kelayotganini, bularning barchasi qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini hayotiy misollar asosida yoritib beradi. Xususan, bugungi kunda inson ma'naviyatiga yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyulgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkinligi uqtiriladi. Darhaqiqat, harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiqni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish qiyin. Shu ma'noda, Prezident I.A.Karimovning tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash, loqaydlik va beparvolikka barham berish haqidagi da'vatlari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asaridada haqli ravishda ta'kidlaganidek, bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz tarzda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

“Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar. Bu haqda gapirganda, men ilgari bildirgan ba'zi fikrlarni takrorlash o'rinli, deb o'ylayman”¹.

“Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008. 113-бет.

masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin"¹.

Asarda bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining g'arazli manfaatlariga erishish uchun "Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash g'oyatda muhim ekani ta'kidlanadi². Shuni hisobga olgan holda, xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolisona va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi sifatida tilga olinadi.

Shuningdek, asarda kommunistik mafkura va uning axloqiy normalaridan voz kechilganidan keyin vujudga kelgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi necha ming yillik an'ana va qadriyatlarimiz, turmush tarzimizning ma'naviy negizlariga jiddiy tahdid qilishi, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solishi mumkinligi ta'kidlanib, bunday xurujlarga qarshi kurashish g'oyat muhim ekani uqtiriladi. Qisqacha aytganda, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda.

Yosh avlodda nafaqat o'z hayoti, oila a'zolari, Vatani va millati oldidagi, balki atrof-tabiati, butun kurrai zamin va jami bashariyat oldidagi **mas'uliyat tuyg'usini** shakllantirish bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim masalasi bo'lib turibdi.

Masalaning mohiyatini chuqurroq talqin etish uchun avvalo global hodisalar mohiyatini yoritish zarur. Ana shu maqsadda globallashtirish tushunchasining ta'rifi uning mazmun mohiyatini ochib berishga uringan ilmiy-nazariy yondashuv va qarashlarga bir oz to'xtalish lozim.

Olim M.leshkovning fikricha, globallashtirish fenomeni evolyutsiya jarayonida kishilik jamiyatiga hos bo'lgan, har xil komponentlarning birikish jarayoni bo'lib, insoniyatning differentsiatsiya jarayoniga teskaridir³.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 113-бет

² Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 116-бет

³ Лешков М. "Глобализация: Сущность инвешния фаза, перспективы". "Proet Contra" Т.; №4, Осень 1999. с. 144.

Globallashuv tushunchasiga K.Zegbers bergan sharhga ko'ra, o'ziga xos rivojlanish yo'lining torayishi (yoki umuman yo'qolishi), umumiy yo'ldan og'ishning iloji bo'lmasligi hukumat yoki jamiyat tomonidan ongli ravishda ma'lum, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlash imkoniyatini qisqarishi demakdir¹.

Ushbu ta'rifda globallashuv jarayonning ko'proq madaniy jihatiga urg'u berilganligi seziladi.

Globallashuv jarayonida dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ayniqsa, internet kishilar kundalik hayotining muhim va ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Global tarmoq shiddat bilan rivojlanib, imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Masalaga ana shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, rus olimi V.Mixeevning globallashuvga bergan ta'rfi ilmiy asoslangan va haqiqatga yaqindir:

“Globallashuv sharoitida bu, dunyo mamlakatlari va mintaqalarining o'zaro iqtisodiy-siyosiy bog'liqligi mislsiz rivojlanadi va dunyoda yagona huquqiy maydon, iqtisodiy va siyosiy boshqaruv masalasini kun tartibiga qo'yish mumkin bo'lib qoladi. Dunyoda iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, harbiy, mafkuraviy sohalarda o'ta qudratli resurslarga ega davlatlar globallashuv jarayonining ijodkorlari sifatida talqin qilinmoqda. Shak-shubhasiz, globallashuv jarayonida lokalizm sharoitlarida shakllangan «suverenitet», «aralashmaslik», «o'ziga xosligini hurmat qilish» kabi qadriyatlar tan olinmasligi holati kuchayib borishi yoki umuman tan olinmasligi kuzatiladi²”.

Buning uchun globallashuv sharoitlarida katta resurslarga ega har bir madaniyat, sivilizatsiya o'zini qutqarishning yagona sharti sifatida boshqa madaniyatlarni ham o'zlashtirishga intiladi.

Yuqoridagi qarashlar tahlilidan kelib chiqib, globallashuv tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Globallashuv – insoniyat tarixiy rivojlanish sivilizatsiyasining zaruriy natijasi bo'lib, ilmiy-texnikaviy inqiloblar, fan rivojlanishidagi buyuk burilishlar natijasi o'laroq yuzaga kelgan sivilizatsiyalararo muloqotlar planetar hodisalar mushtarakligi asosida dunvo xalqlari mentaliteti, ma'naviy olami ruhiyat va intilishlariga tez ta'sir etuvchi axborot kommunikatsiyalar, mafkuraviy ta'sirlarning umumiy aloqadorlik hodisasidir.

¹ Клаус Зегберс “Синяая доскутное одеяло...” (Шанс и риск глобализации в России) “Proet Contra tosh” № 4 Осень 1999, стр. 65.

² Михеев В. “Логика глобализаций и интересы России”. “Proet Contra” 4, ро, 4 Осень 1999 г. стр. 49.

Globallashuv xaqiqatda insonning nafaqat moddiy hayot tarziga, shu bilan birga ma'naviyati, ruhiy olamiga ham sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Har kuni virtual makonda bir necha milliondan ziyod axborot resurslarining paydo bo'lishi uning hosili har daqiqa sayin o'sib borayotganidan dalolat beradi. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning insoniyat madaniyatiga tug'dirayotgan havf-hatarlari to'g'risida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Bu noxush g'ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqning axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish bo'yicha imkoniyatlardan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to'g'ri yo'ldan burish, o'zlari targ'ib etayotgan nopok g'oya va manfaatlar tomon yo'naltirish uchun ularga axborot yetkazish borasida olib borayotgan harakatlari bilan bog'liqdir. So'zsiz, bunday ta'sirga internet auditoriyasining eng faol, eng ko'p qismi tafakkuri yetilib, dunyoqarashi puxta shakllanib ulgurmagan yoshlar beriluvchidir.

Taasufki, ana shunday jiddiy muammoni mukammal va tizimli o'rganishga yetarli e'tibor berilmayapti. Globallashuvning milliy ma'naviyatimiz, an'ana va marosimlarimiz, yoshlarimiz tarbiyasiga o'tkazayotgan ta'sirini o'rganishga esa hali kirishilganicha yo'q. Bu sohadagi hulosalar «Seriallar yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda», «Uyatsiz epizodlarni televideniyada ko'rsatmaslik kerak», degan umumiy gapdan nariga o'tmayapti. G'arb mamlakatlari televideniyesigina emas, atrofimizdagi ba'zi mamlakatlar televideniyesida ham ko'rsatilayotgan yoki G'arbdan translyatsiya qilinayotgan dasturlarga solishtirsak, televideniyemizdagi o'ta behayo deb atalayotgan ko'rsatuvlar juda beozor va risoladagi ko'rinadi. Bu holat o'ta behayo deyilayotgan ko'rsatuvlarning yangi to'lqinini kutishimiz keraqligini anglatadi. Ma'naviy globallashuv xorijdan faqatgina o'shanday behayo tomoshalarning kirib kelishini bildiradimi? Bu savolga javob topishimiz uchun ma'naviyat sohasidagi globallashuvning tarixiga va mohiyatiga nazar tashlashimiz lozim¹.

Globallashuv turli mintaqadagi mamlakatlarning o'zaro ta'siri kuchayishi jarayoni ekan, unda iqtisodiy va ma'naviy ta'sir ko'pincha birgalikda kyechishi kuzatiladi. Faqatgina, ayrim hollarda ular nisbatan mustaqil tarzda kechadi. Globallashuv tarixiga qarasak, qadim zamonlarda ham iqtisodiy va ma'naviy ta'sirlar yonma-yon kechganligini kuzatamiz. Masalan, o'rta asrlarda yurtimiz Buyuk Ipak yo'lini markazida bo'lganligi sababli ham G'arbning, ham Sharqning

¹ Шамсиева И. "Ёш авлод маънавий ривожига интернетнинг таъсири ва ахборот психологик хавфсизлик муаммоси". "Ижтимоий фикр – инсон ҳуқуқлари" журналі №1, 2007, 172-бет.

ta'sirida bo'lgan. G'arbdan Sharqqa borayotgan, Sharqdan G'arbga borgan savdogarlar ham yurtimiz orqali o'tgan.

Savdo mollari bilan birga G'arb va Sharqning urf-odatları, an'ana va marosimlari ham o'lkamizga kirib kela boshlagan. Globallashuv tendensiyasi ana shu tarzda yuzaga kelgan.

Global muammolarning kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilish zaruriyati insoniyat jamiyati yangi sivilizatsiyaviy sifat o'zgarishini taqazo etmoqda. Bu jarayonning mohiyatini chuqurroq anglash uchun, uning jadalilik holati ko'lamı va miqyosiga e'tibor berish zarur. Zero, o'nlab va hatto yuzlab yillar davomida o'zgarmasdek bo'lib ko'ringan ijtimoiy munosabatlar g'oyat qisqa vaqtda tubdan o'zgarmoqda. Bu hol kishilar ijtimoiy hayoti qatlamlarining barcha bo'g'inlarida kishilar turmush tarzida baralla ko'rinmoqda. Ko'lamiga ko'ra, bu jarayon biron mintaqani chetlab o'tmagan.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda. uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarga ko'z yugurtirish bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi. Globallashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sir o'tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina

muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga yetarli ko'mak berishlarini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur.

Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani bizningcha, frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rif. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

– globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;

– globallashuv – jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;

– globallashuv – milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni.

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har uchalasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman»¹.

Shuning uchun ham milliy istiqlool g'oyasini bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda «dovullar»dan saqlash omili ekanligini anglash muhim.

Hozirgi zamon globallashuvi o'ta murakkab jarayon. Uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonda bir-biriga nisbatan raqobatda bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar vujudga keldi.

¹ М.Лафасов, Алиев Б., Султонов Т. Миллий истиклол го'яси: асосий тушунча ва тамойиллар. Маърузалар матни. - Т., 2006. 76-77-бетлар

Globalistlar orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globallashuv muxoliflari orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va shiddatli tus oldi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki tashkilotlarining vujudga kelgani misolida ham ko'rish mumkin.

Globallashuvning tezlashishi va kuchayishiga javob sifatida aksilglobalistlarning faoliyati ham kuchaydi. Ular globallashuvning faqat salbiy oqibatlariga emas, umuman uning o'ziga ham qarshi chiqqa boshladilar. Masalan, rossiyalik faylasuf va yozuvchi A. Zinovev «Aksilglobalizm vektorlari» nomli anjumanda so'zlagan nutqida shunday deydi: «Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!» - degan edi.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko'tarilishiga, Prezidentning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida topib aytilganidek, “sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi”ga olib keldi¹.

Yosh avlodni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim. Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlarni uzil-kesil “yaxshi” yoki “yomon” deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo'lmaydi. “Har qanday taraqqiyot

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 89-бег.

mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin¹.

Prezident «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida globallashuv va integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlarini birma-bir sanab o'tadi. Ularni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, birinchi navbatda turli sohalarda (jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat sohalarida) “davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi”ga xizmat qilishi mumkin. Darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlari kundan-kunga kengayib va rangbaranglashib borayotganini o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz.

Shu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olib boradi, deyish qiyin. Ba'zilar uchun bu hayotda vujudga kelgan har bir yangilik ularning o'z g'arazli maqsadlariga qulay bir vosita xizmatini bajarishi kerak. Jumladan, jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunday buzg'unchi kuchlar uchun “ayni muddao” bo'ldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham o'z qabih niyatlari yo'lida ishga solish harakatiga tushdilar. Vaziyatning murakkabligi shundaki, bunday yovuz niyatli kuchlarning Vatani ham, millati ham, dinu imoni ham yo'q. Ular goh “islomiy” qiyofada, goh “erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish” niqobi ostida harakat qilishlari mumkin.

Globalizm tarafdorlari ham, dushmanlari ham asosiy e'tiborni iqtisodiyot sohasiga qaratishadi. Globallashuvning ma'naviyatga ta'siri va ma'naviy globallashuv masalalari sotsiologiya, falsafa, madaniy antropologiya fanlarida o'zining aksini yetarli darajada topishi kerak.

Mavzuni yoritishda yoshlarga millat barhayotligining ma'naviy omillari xususida tushuncha berish, millat mentalitetiga qaratilgan ma'naviy tahdidlarning mazmunini ochib berish zarur.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Т., Маънавият, 2008. 120-бет.

2.2. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zaruriyati

Dars o'tish metodikasi:

Mazkur mavzuni o'rganishda turli muammolarni hal etish, ularning kelib chiqish sabablari, tuzatish yo'llarini topish, o'quvchilarni mustaqil izlanishga, fikrlashga, o'z fikrlarini isbotlashga va turli vaziyatlardan chiqishga o'rgatishda "Muammoli vaziyat" metodini qo'llash mumkin.

Muammoli vaziyat - o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini topishga asoslangan metoddir.

Dars o'tishning bunday metodlari o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni vaziyatning sabab va ta'sirlarini topishga, fikr va natijalarni tahlil qilishga o'rgatadi.

Muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechimini topish jadvali

Muammoli vaziyat	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Muammoli vaziyatdan chiqish yo'llari
Ma'naviy tajovuzlar: mafkuraviy hurujlar, diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm, missionerlik, prozelitlik	Noma'qul odatlar, illatlar: xudbinlik, befarqlik, loqaydlik, mahalliychilik, manfaatparastlik, sotqinlik, hasad	Insonning yuksak ma'naviyati: irodalilik, sabr-qanoat, jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji, ma'naviy –ma'rifiy targ'ibot ishlarida zamonaviy informatsion, kompyuter texnologiyalarini joriy etish, jamiyatning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish hamda qo'llash

Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Yuksak irodali insonga suyanish mumkin, lekin birovning hayotiga, yon-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga loqayd va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib

yashaydigan odamdan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydilar.

Yoshlarni o'z fikrlariga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifaga aylanib borayotganini anglab etiшимiz zarur.

Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash vositalari:

- ta'lim tizimining barcha turdagi bosqichlari uchun ijtimoiy ananalardan dasturlar asosida elektron darsliklar tizimini yaratish;

- telearxiv fondidan foydalangan holda dasturlar asosida mavzular bo'yicha video darslarni yaratish;

- muzeylar bilan hamkorlikda, ko'chma muzey mashg'ulotlarni reja asosida sifatli amalga oshirish;

- davlat arxivi materiallari asosida ko'rgazmali qurollar, video, audio yozuvlarni tayyorlash;

- yuqoridagi materiallardan foydalanish uchun internet tarmog'i orqali masofadan o'qitish uslubidan foydalanish tizimini yaratish.

Insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi o'zgarmasdir.

Yosh avlodni ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda, xalqimizda uchrab turadigan va azaldan uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan noma'qul odatlarni anglash, ularni bartaraf etish yoki ular keltiradigan noxush holatlarning oldini olish zarurati, chunki ular millat va jamiyatni ichdan kemiruvchi illatlardir.

Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish vazifasi, eng avvalo, keng jamoatchilikning, ayniqsa, ziyolilar, olim va adiblar, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlangan insonlarning zimmasiga tushadi.

Odamzod va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi, avvalambor, boshqalarni ko'rolmaslik, ularning yutug'idan quvonish o'rniga, kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi. Azal-

azaldan ochiqko'ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi.

Ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat bu – sotqinlikdir. Har qanday yovuzlikni sotqinlik keltirib chiqaradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odamning rahbarlik kursiga o'tirishi, tinchlik, osoyishtalikka rahna solishi aniq. Tarixdan mamlakatda fuqarolar va davlatlararo urushlarning boshlanishiga ko'pincha ana shunday sotqin kimsalar sabab bo'lganligi ma'lum.

Mashhur faylasuflardan biri hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: “Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga hiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi”.

«Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asaridada illat sifatida ochib berilgan, bartaraf etilishi lozimligi uqtirilgan hodisalardan yana biri — loqaydlikdir. Prezident I.A.Karimov fikricha, bironing hayotiga, yon-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Bunday holatlarga barham berish uchun har qaysi fuqaro, har qaysi inson, jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga intilib yashashi, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoyalashda o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglab olishi lozim.

Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun, avvalambor, taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi – jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning

rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Albatta, bu masala bo'yicha ijtimoiy fanlar sohasida ma'lum ishlar qilinmoqda, ammo xolisona aytadigan bo'lsak, bu borada chop etilgan ko'pchilik darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ommabop adabiyotlarning ham, aksariyat soha mutaxassislarning ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburiy.

Yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Binobarin, ularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur.

Ushbu mavzuni yoritishda befarqlik, loqaydlik millat oldida kechrimsiz gunoh ekanini tarixiy-badiiy misollar yordamida tushuntirish, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilishi uchun zarur bo'lgan vazifalarni yoritib borish hamda milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlashga alohida e'tiborni qaratish lozim.

Bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlar mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarashni mustahkamlash, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashda muhim ahamiyat kasb etishi «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asaridada alohida ta'kidlanadi.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharri savollariga javob berar ekan, shunday ta'kidlagan edi: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan qayerdagi mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin»¹. Ko'p sinovlar, azobu-uqubatlar, xatolar, fojealar, urushlar, qatog'onlarni boshidan kechirgan asrimiz poyoniga yetayotgan, insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham shiddatli tus olayotganiga ushbu suhbatda nihotyatda keng e'tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda dunyoda ikkita qarama-qarshi qutb barham topgan bo'lsada, turli xil manfaat va maqsadlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan asosiy ko'zlangan maqsad - inson, avvalombor yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning xis-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir.

Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi. Axborot asri, elektronika asri deb atalgan XX asr nihoyasida bu ta'sirlardan xoli bo'lish deyarli imkonsizdir. Mana shunday bir vaziyatda odam mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy qadriyatlariga ega bo'lishi har qachongidan muhimroq bo'lib qolmoqda. Mana shu shart-sharoitlarning barchasi ma'naviyat, milliy mafkura ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Bugungi kunda g'oyani, fikrni taqiq bilan, ma'muriy choralar bilan engib bo'lmaydi. Shunday ekan biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalashimiz uchun ularning ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy

¹ Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. Т. 7.- Т.: «Ўзбекистон», 1999 - 84-бет.

o'zligini, shu bilan birga dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin.

Milliy g'oyaning asosiy maqsadi fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalari, maqsad va yo'nalishlari bilan O'zbekistonning taraqqiyot yo'lining ma'no va mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ishonch uyg'otish, ularni adolatli, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda ma'naviy-ruhiy rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi fuqarolarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalaydi. G'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolarda milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona, zararli g'oyalardan saqlanishga, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, unga nisbatan doimo tayyor bo'la olish «immunitetini» shakllantiradi. Milliy istiqlol g'oyasi mamlakatning oldida turgan ulug', bunyodkorlik ishlari undan ko'zlangan asosiy maqsad insonlarni erkin va farovon hayotga erishish, ozod va obod Vatan qurish yo'lida har bir kishi uchun harakat yo'nalishi bo'lishga qaratilgan. Milliy g'oya hech qachon kishilarning ongi va dunyoqarashini «boshqarish»ga, ularni yana allaqanday «qolipga», «yagona andozaga» solishga qaratilgan emas. U fikrlar, g'oyalar xilma-xilligiga asoslanadi. Erkin fikrni uyg'otish va fikr erkinligini kafolatlab berish, o'zgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Demak, milliy istiqlol g'oyasi «yagona g'oya»ga intilishdan mutlaqo begona bo'lganligi bilan ham boshqa nosog'lom g'oyalardan farq qiladi.

Yosh avlodni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojiga to'siq bo'layotgan eski zamondan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz lozim. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korruptsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish haqida o'ylashimiz lozim. Bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchilik ayniqsa ziyolilarimiz, olimlarimiz va dablarimiz, san'at va madaniyat ahli, umuman o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishi kerak. Bu o'rinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunugi bo'lmish xasad to'g'risida to'xtalib o'tish lozim. Odamzod va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi avvalambor boshqalarni ko'rolmaslik ularning yutug'laridan quvonish o'rniga qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo

bo'lad. Shuning uchun ham muqaddas «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida hasad insoniylikka mutlaqo zid jirkanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan muborak hadislarimizda «Birovga xasad qilishdan saqlaning, chunki olov o'tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Azaldan ochiqko'ngillik, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin afsuski umr davomida hasad balosiga ko'p duch kelamiz. O'lis va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar xasad va baxillik, ko'rolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sog'ligi hatto hayotdan judo bo'lganini achchiq misolida ko'rish mumkin.

O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini bir so'z bilan aytganda xalqimizning yuksak salohiyatini uning qanday buyuk ishlarga qldir ekanini zaminimizdan etishib chiqqan yuzlab zotlarning fidoiyliliklarida ko'rish mumkin. Bunday insonlar zaminimizda xozir ham kuplab topiladi. Hamma gap ana shunday insonlarga xayrixox bo'lishda, ularni qo'llab-quvvatlashda.

Bu haqda gapirar ekanmiz man'aviy hayotimizga jiddiy xavf solayotgan yana bir illat xaqida to'xtalish zarur. Ikkinchisi esa sotqinlikdir. Har qanday yovuzlik sotqinlikdan kelib chiqadi. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shular boshlab beradi. Shu bois ham bunday odamlardan ogoh bo'lishimiz, ularga yonimizda o'rin bo'lmasligi lozim. Shu munosabat bilan tarixda ko'p marta o'z tasdig'ini topgan, men ham o'z tajribamda sinagan xaytiy bir xaqiqatni yana bir marta takrorlashni zarur deb hisoblayman: agar biz axil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida birtanu bir jon bo'lib birlashsak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon engal olmaydi.

2.3. Korrupsiya va jinoyatchilik, uni oldini olish

Dars o'tish metodikasi:

Ushbu mavzuni yoritishda “Yo‘nalish” va “Bumerang” texnologiyalardan foydalanilgan holda darsni o‘tkazish tavsiya etiladi.

“YO‘NALISH”

Texnologiyaning maqsadi: Taklif etilayotgan muammolarni tahlil qilib, yechimini topishga o‘rgatiladi.

O‘tkazilish tartibi: O‘qituvchi ma‘lum ma‘naviy tahdid haqida misol tariqasida fikrlarini bayon eta boshlagach, har bir ishtirokchi so‘z qaysi ma‘naviy tahdid haqida borayotganligini aniqlab boradi. O‘qituvchi har bir ishtirokchining daftarida ma‘lum ma‘naviy tahdid nomi to‘g‘ri ko‘rsatilganini rag‘batlantirib boradi.

Kutiladigan natija:

O‘qituvchi guruhdagi ishtirokchining tayyorgarlik darajasini ko‘rib bilib turadi, ishtirokchining bilimlarni qisman o‘zlashtirib olishiga imkon yaratiladi.

“BUMERANG”

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lish hamda dars mobaynida baholay olishga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi. O‘quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash.

Texnologiyani qo‘llash tartibi: Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

- talabalar kichik guruhlarga ajratiladi;
- talabalar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- talabalarga mustaqil o‘rganish uchun mavzu bo‘yicha matnlar tarqatiladi;
- berilgan matnlar talabalar tomonidan yakka tartibda mustaqil o‘rganiladi;
- har bir guruh a‘zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o‘rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya‘ni bir-birlariga so‘zlab beradilar, matnni o‘zlashtirib olishlariga erishadilar;

- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlarga qaytadilar;
- darsning qolgan jarayonida talabalar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi;
- talabalar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi talabalarga savollar bilan murojaat etadi, og'zaki so'rov o'tkazadi;
- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarni to'plagan umumiy ballari aniqlanadi;
- har bir guruh a'zosi tomonidan matn mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;
- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi;
- guruh a'zolari tomonidan to'plagan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi;
- guruhlar to'plagan umumiy ballar guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi.

Talabalarga uchta guruhga ajratilib, uchta mavzu beriladi:

1-mavzu: Jinoyatchilik va uning oldini olish.

2-mavzu: Korrupsiya va uning oldini olish.

3-mavzu: Ekologik muammo va uni hal etish.

Ushbu mavzu yuzasidan o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi kerak. Korrupsiya va jinoyatchilik va uni oldini olish chora-tadbirlarini talabalarga chuqur tushuntira bilishi shart.

Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bevosita tahdid tug'diradi.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari O'zbekiston Respublikasi ham bundan xoli emas. Korrupsiyaga va jinoyatchilikka qarshi kurash muammolariga bizdagi qiziqish aslo bejiz emas. Albatta, bu borada keng tarqalgan va umum e'tirof etilgan bir fikrni, ya'ni totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabatlariga o'tishdek murakkab davr mohiyatan asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy

tuzilmalarni sindirib tashlashni anglatadi, bu esa axloq-odob me'yorlariga salbiy ta'sir etadi va jinoyatchilik hamda korrupsiya muqarrar ravishda kuchayadi, degan xulosani eslatib o'tish mumkin. Lekin bu hodisalar davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi va pirovardida yosh istiqlolimizga qanday tahdid solishini chuqur tushunish uchun, aftidan, birgina shu ta'rifning o'zi kamlik kiladi.

Qanchalik qayg'uli tuyulmasin, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo'lgan. Biroq o'tish davrida uning mazmuni faqat jinoiy qilmish doirasi bilangina cheklanib qolmaydi. Yangi mustaqil davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali amalda mulkni qayta taqsimlash jarayoni yuz bermoqda. Ayni shu hol islohotlarning mohiyatini belgilaydi. Avvalgi tuzumda davlat tomonidan tortib olingan boylik endilikda uni yaratgan va o'z mehnati bilan ko'paytirayotganlarga tegishli bo'lishi lozim. Qayta taqsimlashning mohiyati shundadir.

Har bir mamlakat bu jarayonning shakllari va sur'atlarini mustaqil belgilamoqda. Uni jinoyatchilar dunyosining halokatli ta'siridan himoya qilishga intilmoqda. Bu o'rinda gap o'g'irlik, talon toroj, odam o'ldirish va shaxsga nisbatan zo'ravonlik qilish kabi jinoyatlar ustidagina borayotgani yo'q. O'tish davrida yangi iqtisodiy mexanizmlar shakllantirilayotgan bir paytda aholining asosiy ko'pchiligi bozor sharoitida yashashni endigina o'rganayotganligidan va uning ob'ektiv qonunlarini payqay boshlaganligidan foydalanib, amalga oshirilayotgan iqtisodiy jinoyatlar toifasi katta xavf tug'diradi.

Jinoyatchi unsurlarning yangi xo'jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug'diradi. Bu esa mamlakat uchun ham, jahon hamjamiyati uchun ham nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining alohida turi shakllanishiga olib keladi.

Jinoiy yoki ko'p hollarda "xufyona" deb atalayotgan iqtisodiyot voqelik sifatida quyidagicha sharoitda o'sdi va rivojlandi: u ishlab chiqarish sohasidagi qonunlarni qo'pol ravishda buzib, o'ziga xon - o'ziga bek bo'lib olgan edi. Chunki unga eng yaqin raqobatchi bo'lgan davlatning iqtisodiy tuzilmalari qotib qolgan ko'rsatmalar va taqiqlar bilan cheklab qo'yilgan edi. Sovet davrida bu hodisa haddan tashqari kuchaydi, xunuk holga keldi va O'zbekistonga ham meros bo'lib qoldi.

Jamiyatda jinoiy "xufyona iqtisodiyot"ning mavjud bo'lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyati tuzilmalarining turli bo'g'inlari va turli darajalari vakillari ham uning yo'ldan ozdiruvchi ta'siriga tushib qoladi. Korrupsiya vujudga kelib, u

eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish yoki to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi. BU esa jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlar tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdiddir.

Tez-tez sodir bo'lib turadigan jinoyatchilikdan jamiyat, davlat, xalq, oddiy fuqarolar ko'rayotgan moddiy, ma'naviy zararining qanchaga tushayotganligini aniq aytish, to'liq hisoblab chiqish oson emas. Jinoyatchilik oqibatida odam o'ldiriladi, mol-mulk o'g'irlab ketiladi, moddiy-ma'naviy boyliklarga, tabiatga, atrof-muhitga zarar yetkaziladi. Jinoyatning turlari shu qadar ko'pki, ularning hammasini birma-bir sanab chiqish, ular yetkazadigan zararni aniqlash anrimaholdir. «Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajaga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan: uncha og'ir bo'lmagan: og'ir; o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi¹.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi².

Jinoyatchilikning xavfli oqibatlarini aniq-ravshan bilib olish, ularni bartaraf etish uchun «jinoyat tushunchasi», «jinoyatlarni tasniflash», «jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari», «javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar», «aybning shakllari», «qasddan sodir etilgan jinoyat», «ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat», «murakkab aybli jinoyat», «jinoyatda ishtirokchilik», «shaxsga qarshi jinoyatlar», «tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar», «ekologiya sohasidagi jinoyatlar», «javobgarlik va jazodan ozod qilish» singari yuridik ilmiy

¹ Ражабова М. Жиноий жазоларни либераллаштириш: илмий ва амалий таҳлил – Т., Адолат, 2005. 35-б.

² Кадрлар Тайёрлаш Миллий Дастури. - Т., 1997. 8-9-беглар.

tushuncha, atama va iboralarning ma'no-mazmunini bilish, mag'ziga yetib borish, ular mohiyatini aholi keng qatlamlari, birinchi navbatda, navqiron avlodning, talaba-yoshlarning ongiga singdirish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biridir¹.

Jinoyatga javobgarlik asoslari, jazo va uni tayinlash, hayotga va sog'liqqa, oilaga, yoshlarga va ahloqqa qarshi va boshqa ko'plab jinoyatlarning tub negizi – mag'ziga yetib borishda huquqiy bilimlar majmui tarzidagi qomuslar va lug'atlar, siyosiy-huquqiy yo'nalishdagi adabiyotlar, asar va risolalar, shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalariga, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlariga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining (JK) 14-moddasiga asosan JK bilan ta'qiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish jazo qo'llash tahdidi bilan sodir etilgan qilmish jinoyat deb topiladi.

Jinoyat o'ziga xos jihatlari bilan boshqa qoidabuzarliklardan ajralib turadi. Bu qilmishning ijtimoiy xavfliligidir. Jinoyat bilan bog'liq qilmish natijasida jamiyat va shaxs uchun ham moddiy, ham ma'naviy zarar yetkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyat oqibatida aks etadi².

Jinoyat uchun jazo muqarrardir. Jinoyat qilgan odam kimligidan qat'iy nazar, qilgan nojo'ya xatti-harakatlari, qonunbuzarligi, boshqacha aytganda, jinoyati uchun sud hukmi bilan jazolanadi.

Jinoyat kodeksining 42-moddasiga asosan, «Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo mahkumni ahloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Sud jinoyat sodir etgan shaxsni qonunga zid qilmishlari uchun jazoga tortadi. Sud jazo tayinlashda Jinoyat Kodeksining 54-moddasida belgilab qo'yilgan quyidagi tamoyillarga asoslanadi: «Jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortiladi. Sud ushbu Kodeks Maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada Umumiy qismining qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi.

¹ Гофуров З. Маънавий юксалиш ва ҳуқуқий баркамоллик. Т., Молия институти, 2007, 72-73-бетлар.

² Юридик энциклопедия. – Т., Шарқ, 2007, 156-бет.

Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi.

Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 16-moddasida aniq bayon etilgan. Unda shunday deyiladi: «Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanishda ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir»¹.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi².

Jinoyat Kodeksining 20-moddasi bo'yicha, «Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyodsizlik orqasida sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilishda aybdor deb topilishi mumkin». Ko'rinib turganidek, aybning ikki shakli – qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan qilingan ayb kabilar mavjud.

Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush qurishi, hohish-irodasining amalga oshirilishi, ezgu maqsad niyatlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim.

Shu kafolat vatan taraqqiyotini, davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni, mustaqillikning barqarorligini ta'minlashga shart-sharoit yaratadi. Yuqorida aytilgan kafolat respublikamiz konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu haqda prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «Davlatimiz, O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro kelajagining kafolatini Konstitutsiya beradi. Fuqarolarning haq-huquqlari, burchlari konstitutsiyada belgilangan, tegishli qonunlar bilan mustahkamlangan. Maqsadimiz erkin, demokratik huquqiy davlat qurish, adolatli jamiyat barpo etish, hech bir insonni kamsitmaslik, e'tiqodini hurmat qilish, erkinligini ta'minlash», - deb ko'rsatgan edi.

Oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erishish uchun bugungi O'zbekistonga erkin va ravon fikrlay oladigan, uning hayotida faol ishtirok eta biladigan, o'z so'zini aytishga qodir, o'z vazifa va burchlarini to'g'ri anglab yetgan fuqarolar zarur. Bunday fuqaroni

¹ Юридич энциклопедия. – Т., Шарқ, 2007, 245-бет.

² Гофуров З. Мазнавий юксалини ва ҳукукий баркамоллик. Т., Молия институти, 2007, 75-бет.

tarbiyalash zamon, taraqqiyotimiz talabi. Bunga qanday erishish mumkin?

Demokratik xuquqiy davlat bunyodkorlari xuquqiy madaniyati, tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan maqsadimizga erisha olamiz. Mamlakatimizning har bir fuqarosi, Siz kabi yoshlar qomusimiz va boshqa qonunlarni o'rganib olishlari zarur. Konstitutsiyani bilmagan, puxta o'rganmagan kishi o'z haq-huquqlarini bilmaydi. Huquqini bilmagan odamning hayoti oxir oqibatda fojiali tus olishi mumkin. Buni Prezidentimiz shunday ko'rsatadi: «Madomiki maqsadimiz aniq ekan, inson huquqlari umumxalq muhokamasida qabul qilingan Konstitutsiya himoyasida ekan, avlodlarimiz, farzandlarimiz kelajagiga xavf soladigan, millat sha'niga dog' tushiradigan xatti-harakatlar qayerdan paydo bo'layapti?» Bu o'rinda Prezidentimiz bunday qaltis xatti-harakatlarga qo'l urgan kimsalarning qonunni bilmasligi, bilsa ham unga mensimasdan qarashi, hurmat qilmasligida ekanini, ularda huquqiy madaniyatning yo'qligi, yetishmasligini aytmoqchi¹.

Ko'pincha kishilar huquq, qonun, burch, adliya kabi atamalarni, ba'zan tasodifan qonunbuzarlik qilib qonun oldida javobgarlik holatiga tushib qolganlaridagina eslaydilar. Nega qonunga ro'para bo'lding, deb so'ralganda «Bunday bo'lishidan xabarim yo'q edi» - deb ko'zini miltillatib, advokatdan najot kutib turadilar. Shuni yaxshi anglashimiz kerakki, qonunni bilmaslik hech qachon aybni yengillashtirmaydi. Biz qonunga mensimaslik bilan qarasak, uni o'rganmasak, hurmat qilmasak shunday noqulay ahvolga tushib qolamiz. Qonunni bilish, hurmat qilish jinoyatdan, jinoiy olamdan yiroq yurishning birdan-bir yo'lidir. Qonunga hurmat inson madaniyati va ma'naviyati bo'lib qolganda, bunday jamiyatni boshqarish ham, adolatni qaror toptirish ham oson bo'ladi.

Mana shuning uchun ham huquqiy savodxonlikni yuqori darajaga ko'tarish tarbiya borasidagi asosiy ishlarimizdan biri bo'lib qolmog'i kerak. Huquqiy madaniyatni, savodxonlikni rivojlantirmay turib qonunni mensimaydigan buzg'inchilar, o'g'ri va yulg'ichlar, tovlamachilar, laganbardorlar, axloqsizliklar, qotilliklar kabi salbiy holatlarning oldini olish, tugatish anchayin mushkul ish. Bunday qonunbuzarlardan avvalo odamlarni, jamiyatni himoya qilish zarur. Yurtboshimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda: «...davlat davlatligini qilmoqchi bo'lsa, fuqaroni o'z panohiga olishi zarur...

Boshqacha aytganda, davlat har bir fuqarosini himoya etishi, unga huquqiy yordam berishi kerak. Qonun oldida barcha barobar. Mamlakat

¹ Гофуров З. Маънавий юксалиш ва ҳуқуқий баркамоллик. Т.. Молия институти, 2007, 88-бет.

qonunlariga ja'mi fuqaro - yoshidan, millatidan, irqi, dinidan qat'i nazar – barcha barobar bo'ysunmog'i farz». Yana Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, qonun qog'ozda kelib ketsa, jamiyat aslo ravnaq topmaydi, qonun amalda bo'lishi lozim.

Yuqoridagilarni bajarish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish adolatli davlatning ma'naviy va ma'rifiy vazifasi. Bizning vazifamiz esa fuqarolar manfaatini ko'zlovchi qonunlarga to'liq rioya etishdan iborat.

Ma'lumki, inson hayoti va sog'ligi shaxsning bebaho boyligi hisoblanadi va uning bu boyliklardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxs uchun fojia hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne'matlaridan bahramand bo'lib yashashga intiladi. Hayotdan mahrum qilingan shaxsning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Insonning sog'ligiga zarar yetkazilishi unga jismoniy, aqliy, ruhiy azoblar berib, uning hayotiy faoliyatini cheklab qo'yadi. Jinoyatchi tomonidan insonning boshqa huquq va erkinliklarining buzilishi shaxs uchun ijtimoiy xavfi hayotdan mahrum etishdan kam bo'lmagan xavfni tug'diradi¹.

Shaxsga qarshi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqori ekanligi sababli, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi Maxsus qismi birinchi bo'limi «Shaxsga qarshi jinoyatlar» deb nomlanadi.

Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limida shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik ko'zda tutilgan bo'lib, ular bevosita ob'ekti bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratilgan: hayotga qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar, oilaga, yoshlarga va ahloqqa qarshi jinoyatlar, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, xalq ochlikka, yo'qchilikka, hamma narsaga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi.

Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog'i darkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch-g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro jinoyatchilik va korrupsiya yo'liga o'z vaqtida

¹ Рустамбоев М. Жиноят ҳуқуқи (Махсус қисм). – Т., Ўқитувчи, 2003. 11-12-бетлар.

zarur to'siq qo'yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab etmog'i lozim.

Tarixiy tajriba va hozirgi amaliyot, shu jumladan ba'zi yangi mustaqil davlatlardagi voqelik korrupsiya va jinoyatchilik, xavfsizlikka soladigan tahdidni yaqqol tasavvur etish imkonini bermogda¹.

Birinchidan, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir. Unda o'z umrini yashab bo'lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o'ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ularning rivojlanishini sekinlashtirib qo'yishga harakat qiladigan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan "xufyona" iqtisodiyotning manfaatlari ob'ektiv ravishda birlashib ketadi. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarning manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o'tish davrida korrupsiya o'z xatti-harakati bilan bu jarayonning yo'lini to'sib qo'yish imkoniga ega.

Ikkinchidan, jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. "Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir" degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi. Basharti iqtisodiyotda jinoiy guruhlar va "reketchilar" to'dalari "bazzm qursa", ko'chalarda esa odamlar qo'rqqanlaridan tasodifiy o'tkinchilardan qochib yursalar, jamiyatdagi barqarorlik va sobitqadamlik haqida gap bo'lishi mumkinmi?

Uchinchidan, jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan "qudratli markazning kuchli qo'li"ni qo'msash hissini tug'diradi.

O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharo-itida fuqarolar ongida, ayniqsa, yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq,

¹ Каримов И.А. Узбекистон XXI аср бусагасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., Узбекистон, 1997. 112-бет.

degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing'ir yo'l bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa, odamlarni, ayniqsa, hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'lga og'diradi. Axir, jamiyat va davlat uchun yosh avlodning axloqan buzilishi va yuztuban ketishidan ham ayanchliroq, halokatliroq hol bormi o'zi?

To'rtinchidan, "pul hokimiyatga intiladi", degan bir ibora bor. Lekin bu pul jinoiy yo'l bilan topilgan bo'lsa-yu, uning egalari jamiyatning hokimiyat tuzilmalariga chiqib olsalar, ular qanday usullar bilan boshqarishlarini tasavvur qilish qiyin emas.

Jinoyat olamining nufuzli shaxslari hokimiyatga qanday yo'llar bilan kirib olishi yaxshi ma'lum va ko'p mamlakatlarda sinovdan o'tgan. Avvaliga bu ish nopok daromad manbalarini saqlab qolish, ulardan kafolatli foydalanish maqsadida hokimiyat tuzilmalari bilan aloqa bog'lash va bu aloqani mustahkamlashdan boshlanadi. Shundan so'ng hokimiyatning o'zi ham qo'lga kiritiladi.

Hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o'zini obro'sizlantiradi. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham unga ishonchsizlik ortib boradi.

Beshinchidan, nopok yo'l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o'zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar. Bunday paytda ehtiroslarni junbushga keltirish, olomonni qo'zg'atish va uning orqasiga yashirinib olishdan qulayi yo'q. Bunday odamlarning "Faqat bizga yaxshi bo'lsa, ishimiz bitsa – bo'lgani" qabilidagi maslagi xudbinlikning, hamyurtlariga nisbatan surbetlarcha loqaydlikning yaqqol ko'rinishidirishidan ham ayanchliroq, halokatliroq hol bormi o'zi?

Oltinchidan, jinoiy usullar bilan boylik va mo'may pul orttirgan kimsalarning yangi huquq himoyachilari va hatto demokratiya uchun jafo chekkan kurashchilar sifatida siyosatga kirib olishga harakat qilayotganidan dalolat beruvchi misollar. jumladan, bizda ham oz emas.

Ular bunday xatti-harakatlari bilan insoniyatning adolat va demokratiya kabi olijanob ideallariga naqadar jiddiy zarar yetkazayotganlarini, o'z xalqlari va mamlakatlari sha'niga dog' tushirayotganlarini aytib o'tirishning hojati bormikin? Nafsilamrini aytganda, ular o'z xalqlari va mamlakatlarning taqdiriga, ozodlik va mustaqillik ideallariga mutlaqo befarq qaraydilar.

Bunday shaxslarning turish-turmushi ketma-ket qilingan jinoiy xatti-harakatlar zanjiridan iboratdir. Avvaliga o'z xalqini aldab kapital to'planadi. keyingi gal – demokratiya va adolatni ro'kach qilgan holda jamoatchilik fikrini aldab, siyosiy obro' orttiriladi. Sir emaski, bunday shaxslar o'z manfaatlarini yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar. Shunday qilib, ular kelasi gal qanday aldovni ishga soladilar? – degan mantiqiy savol tug'iladi.

Ettinchidan, jahon xo'jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o'zgarishlar jarayoniga tortish sohasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyat bugun O'zbekiston uchun ustuvor vazifalar hisoblanadi. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish sharoitida korrupsiyachilarning xatti-harakatlari nafaqat mamlakatimizning halol fuqarolarini tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg'otadi va ularni cho'chitib qo'yadi.

Natijada mamlakat g'oyat muhim kapital mablag'lar manbaidan, texnologiyalar va tajribadan, jahon iqqisodiy tizimining sog'lom, "sof" qismiga qo'shilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bunday mamlakat xalqaro xufiya va jinoiy tuzilmalar tobora ko'proq qiziqadigan va faol ish olib boradigan makon bo'lib qoladi.

Borgan sari uyushib va professional tus olib borayotgan hozirgi jinoyatchilikning jipslashishi, jinoiy guruhlar tomonidan iste'mol bozorlarining butkul egallab olinishi. Qonunsiz ravishda qo'lga kiritilgan kapitallarning xo'jalik va tijorat tuzilmalari orqali qonuniylashtirib olinishi yaqqol ko'zga tashlanayotganligi ham juda xavflidir.

O'g'irlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi poraxo'rlik ham jinovatdir.

Insoniyatga tahdid solayotgan xavf-xatarlar orasida ekologik muammolar alohida o'rin tutadi. Ekologik xavf-xatar yadroviy xavf-xatardan kam emas.

Odam paydo bo'lgancha va uning tabiatga ta'sir etguniga qadar tabiat unsurlari o'rtasida o'zaro uyg'un bog'lanishlar mavjud edi. Odam paydo bo'lgandan so'ng, ya'ni u fikrlash va ishlab chiqarish qurollarini yarata boshlagandan keyin tabiatdagi uyg'unlik buzila boshlandi. Inson

tomonidan tabiatni o'zlashtirish, tabiat uchur xos bo'lgan qonuniyatlarning buzilishi odamlarni sog'lig'igagina emas, balki ularning Yer yuzida yashashiga ham xavf tug'dira boshladi.

Hozirgi davrda jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlarining tez sur'atlar bilan o'sishi, tabiatdan pala-partish foydalanish va o'zlashtirish natijasida ekologik muvozanat buzilib, ekoogik tanglik yuzaga keldi¹.

Ekologik muvozanatning buzilishi atmosfera, er osti suvlari, dengiz va okeanlarning ifloslanishi, qattiq chiqindilar, shovqinning kelib chiqishi, radioaktiv moddalarning kuchli ta'siri va bshqalarda ifodalanadi. Inson tabiat va uning qonunlarini yaxshiroq o'rganib foydalanish o'rniga hayot muhitini jadallik bian buza boshladi va ifloslantirdi.

Ekologik tangliklar o'z navbatida avj olib, sayyoramizning ba'zi mintaqalarida ekologik halokatlarni keltirib chiqaradi. Ekologik tanglikning tinmay kuchayib borishi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ekologik muammolar o'z vaqtida hal qilinmasa, muayyan hududga ekologik halokat xavfini olib keladi.

Ekologik tanglik deganda tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar holati tushunilib, bunda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarining nomuvofiqligi kelib chiqadi, ya'ni biosferaning ashyoviy-ekologik imkoniyatlari o'zgaradi.

Ekologik halokat tabiatdagi yoki insonning tabiiy jarayonlarga ko'rsatgan faolligi natijasida ma'lum mintaqada juda noqulay iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi va aholining yalpi nobud bo'lishiga olib keluvchi hodisa hisoblanadi².

XXI asrda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik norma, tabiiy boyliklarni kelgusi avlodlarga tejamkorlik bilan foydalanib yetkazish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridandir.

O'rmonlar, suv havzalari, tuproq, atmosfera havosi, o'simlik va hayvon turlari kamayib borishining oldini olish uchun tabiatni o'rganish va uning qonuniyatlarini o'rganish lozim.

Nihoyat, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi murosasizlik va umumiy qoralash muhitini vujudga keltirish juda muhimdir. Jinoyatchilar, korrupsiya dunyosi hammadan ham o'z kirdikorlarining oshkor bo'lishidan qo'rqadi. Shu sababli biz matbuotimiz va boshqa ommaviy axborot vositalarimizning o'z erkinlashish jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurash dasturiga yanada muhimroq hissa qo'shadi, deb kutishga haqlimiz.

¹ Экология ҳукуқи. Дарслик. Т., Тошкент Давлат Юридик институти. 2001, 45-бет.

² Ўша китоб, 50-56-бетлар.

Jinoyatchilikdek murakkab hodisani tahlil qilar ekanmiz, ushbu muammoning boshqa tomonini ham nazarda tutmog‘imiz kerak. Bu muammoning mazmunini bitta jumla bilan ifodalash mumkin — jinoyatchilar dunyosi chegara bilmaydi.

Yengil yo‘l bilan juda katta boylik orttirish sharpasi turli mamlakatlardagi jinoyatchi unsurlarning birlashishiga, xalqaro jinoiy hamjamiyatlar paydo bo‘lishiga olib kelishini ko‘rsatuvchi misollar butun dunyo amaliyotida yetarli. Ularning faoliyat sohasi barchaga ma‘lum: u nopok pul topish imkoni bo‘lgan hamma joyda qo‘llaniladi.

Jinoyat tarkibi – bu ijtimoiy xavfli qilmishning ob‘ektiv va sub‘ektiv elementlari yig‘indisidan iborat. Jinoyat tarkibini aniqlash uni to‘g‘ri baholash uchun kerak bo‘ladi¹.

Jinoyat tarkibining elementlari:

- jinoyat ob‘ekti;
- ob‘ektiv tomon;
- jinoyat sub‘ekti;
- sub‘ektiv tomon.

Jinoyat ob‘ekti jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Jinoyatlar ob‘ektlarning uch turi mavjud:

1. Umumiy ob‘ekt – jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi.

2. Maxsus ob‘ekt – jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan o‘z mohiyati bo‘yicha bir xildagi ijtimoiy munosabatlar.

3. Jinoyatning bevosita ob‘ektlari jinoyatlarning aniq turiga bevosita qaratilgan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Huquq tizimida jinoyat huquqi muhim rol o‘ynaydi. Uning bunday roli o‘z oldida turgan alohida muhim vazifalar bilan bog‘liq. Bu vazifalarning eng muhimlari inson va fuqaro haq-huquqlari va erkinliklarini, mulkni, ijtimoiy xavfsizlik va jamoat tartibini, konstitutsiyaviy tuzumni, atrof-muhitni jinoiy tajovuzlardan asrab-avaylash. shuningdek, jinoyatlarning oldini olishdan iborat.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan fikrlarning hammasini huquqiy bilim va madaniyatli bo‘lish, qonunchilik asoslaridan xabardorlik demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning zarur shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatib turadi.

¹ Хуқуқшунослик. Ўқув қўлланма. Т., Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2002, 227-228-бетлар.

2.4. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish

Dars o'tish metodikasi:

Ushbu mavzuni yoritishda "Labirint" texnologiyasini qo'llashga maqsadga muvofiqdir.

"LABIRINT"

Texnologiyaning maqsadi: talabalarning o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o'z obro'larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimini topish ko'nikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko'maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o'stirish hamda muloqot qilish madaniyatini shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: mashg'ulot boshlanishi oldidan talabalar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlanadi. Joyning bunday jihozlanishi mashg'ulotning qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi. Imkon bo'lsa, bunday mashg'ulot ochiq havoda, ya'ni tabiat qo'ynida o'tkazilsa, u holda talabalar yashil maysalar ustida doira shaklida bemaol joylashib olsalar ham bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot boshlanishi bilan talabalarni shu davradan joy egallashlarini so'raydi.

So'ngra talabalarning faoliyati rang-barang va hamisha ham turli qiziq voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg'ulotni boshlaydi. Misol tariqasida o'qituvchi, talabalar faoliyatida uchragan yoki uchraydigan vaziyatlardan biri to'g'risida gapirib beradi, shu vaziyatdan chiqish yo'lini so'raydi yoki o'qituvchi vaziyatni aytib, uning uchta yechimini ham aytadi. Talabalardan uchta to'g'ri variantdan bittasini tanlashlarini va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlarini so'raydi. Shundan so'ng o'qituvchi talabalarni hohishlariga ko'ra, uch kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi va ularga har bir kichik guruh a'zolari o'z ish tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchi va talabalar faoliyatida uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatlarni eslashlari, ulardan eng qiziqarli, eng muammolisini tanlab, ularning yechimini ham topib qo'yish topshirig'ini beradi.

O'qituvchi yordamida har bir kichik guruh navbati bilan o'zlari tayyorlagan vaziyat yoki muammolarni boshqalarga og'zaki bayon

etadilar. Kichik guruhlar tomonidan aytilgan vaziyat yoki muammoning yechimini topish uchun o'qituvchi ularga aniq vaqt belgilab beradi. Berilgan vaqt ichida kichik guruh a'zolari vaziyat yoki muammo yechimini topishga harakat qiladilar, vaqt tugagach, guruhlarining javoblari tinglanadi. Masalan, avval bir kichik guruh tanlagan vaziyat yoki muammo yana bir marotaba esga tushiriladi va qolgan kichik guruhlar navbati bilan ushbu vaziyat va muammoga o'z yechimlarini aytadilar. Barcha kichik guruhlar o'zlari tanlagan javoblarini aytib bo'lishgach, vaziyat yoki muammoni o'rta tashlagan kichik guruhning o'zi yechim haqida fikr bildiradi. So'ngra, ikkinchi guruh o'rta tashlagan vaziyat yoki muammoning muhokamasiga o'tiladi, shu kabi davradagi guruhlar tomonidan o'rta tashlangan barcha vaziyat yoki muammolar muhokamasi o'tkaziladi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi talabalar va guruhlar ishiga baho beradi va muammoning yechimini topishda ularga nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligi to'g'risida tavsiyalar beradi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Ushbu rejani yoritishdan avval "diniy ekstremizm va fundamentalizm" tushunchalarining kelib chiqishi mohiyati haqida to'xtalish lozim.

Diniy ekstremizm ("extreme"- oxiri, nihoyasi, so'nggi, keskin uchi ma'nolarini bildiradi)¹. Jamiyat millat va davlat hayotini faqat diniy aqidalardan kelib chiqib keskin o'zgartirish va boshqarish zarurligini ilgari suruvchi tashkilotlar, oqimlar faoliyatidan iborat. Ular har qanday dunyoviy, demokratik tamoyillarni, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini tan olmaslikka asoslangan reaksiyon mafkuraga tayanadilar.

Diniy ekstremizm tarafdorlari qonuniy siyosiy hokimiyatni zo'rovonlik bilan egallashga urinadilar va bu yo'lda har qanday usullardan foydalanadilar. "Vahhobiylilik", "Hizbut-tahrir", "Musulmon birodarlari", "Turkiston Islom harakati" kabi diniy ekstremistik oqimlar va tashkilotlar shular jumlasidandir.

Turli ekstremistik guruhlarining o'zaro munosabatida doimiy kelishmovchilik va janjallar, voqealarning keskin o'zgarish sharoitida ular bo'linib ketadigan guruhlar o'rtasidagi "revolyutsionerlikda" musobaqalashuvi kuzatiladi. Ularga yopiq sektarlarga xos mistik tildan, e'tiqodga da'vat qilish yoki undan "chetlanish", "shakkoklik" uchun jazolash kabi uslublardan foydalanish xosdir.

Amerikalik sotsiolog K.Keniston "bunday guruhlariga odatiy shaxsiy nizolar, liderlik uchun kurash, did va qarashlardagi farq sezilarli

¹ Мунавваров З., Ёвқачев Ш., Жабборов И.. Терроризм: илдо ва ҳақиқат. Т.: 2001, 36-бет.

darajada o'sib, ba'zida, hatto, hayot-mamot masalasigacha yetib boradi"¹, - deb yozgan edi.

Diniy ekstremistik guruhlar bugungi kunda noqonuniy ravishda moddiy boyliklarga ega bo'lish maqsadida talon-taroj, xunrezlik, yuridik va jismoniy shaxslar hayotiga tajovuz qilish bilan shug'ullanadilar.

Diniy ekstremizmning bugungi kunda vujudga kelishi va o'sishning asosiy ob'ektiv va sub'ektiv omillari mavjud. Bular diniy va milliy o'zlikning keskin o'sishi, ma'lum qatlamlar va guruhlarining kuch bilan siyosiy jamiyatni ag'darib davlat va jamiyatni islomlashtirishga intilishiga borib taqaladi. Diniy ekstremizmning eng dahshatli holati shundaki, u davlat, xalq chegarasini bilmaydi, g'araz niyatlarga to'siq bo'lmaganidek, bular ham o'ramalab tarqab boradi.

"Fundamentalizm" atamasi aslida, xristian dini bilan bog'liq holda shakllangan. Uning birinchi bor rasmiy qo'llanishi 1908 yili AQSh ning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan "Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi"ga (The Conference on Cristian Fundamentalism)² tegishlidir.

Xristianlar Injilni tashviq etish uchun uni turli tillarga tarjima qilganlar va natijada mazkur tarjima matnlari orasida katta farqlar paydo bo'lgan. Asl Injil matni o'z davridayoq yo'qolib ketgani bois, havoriylarning qarashlari, maktublari, yozishmalari orqali Injil tartibga keltirilgan.

Injil dogmalarining o'zgartirilishi keyinchalik ba'zi radikal din arboblari tomonidan tanqid qilingan. Ularning asosiy maqsadi Injilni sof holiga keltirish masalasi bo'lgan. Buning oqibatida undagi ustuvor g'oyalar talqinida buzilishlarga yo'l qo'yilgan. Shuning uchun dastlabki diniy asosga qaytish zarur, degan da'vo fundamentalizmni keltirib chiqardi.

Fundamentalistlarning bugungi kunda ilgari surayotgan va tayanch g'oya sifatida e'tiborni tortishi kerak bo'lgan fikri xalifalikka qaytish, buning uchun "jihod" qilish, jihod yo'lida "shahidlik", ya'ni o'zini qurbon berish talablari yotadi. Ular barcha musulmon diniga mansub xalqlarni xalifalik deb nom olgan va bitta xalifa boshqaradigan yagona diniy davlatga birlashtirib, amaldagi Konstitutsiya va qonunlar o'rniga, o'rta asrlarda hukm surgan aqida va odatlarga itoat qildirmoqchi bo'ladilar³.

¹ Тинчлик-бағрикенглик атамалари изоҳли луғати. Т.: 2005, 57-бет.

² Миллий истиклол госяи. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун. Дарслик. Т.: "Академия", 2005, 49-бет.

³ Мунавваров З., Ёвқачев Ш., Жабборов И.. Терроризм: иддао ва ҳақиқат. Т.: 2001, 36-бет.

Aslida “fundamentalizm” va “ekstremizm” g‘oyalari Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko‘zlangan maqsad-dinning qadriyatlarini qaytadan tiklash emas, balki ana shu g‘oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo‘lga kiritishdir. Bu urinishlarda tuzatib bo‘lmas fojialarga olib kelishi mumkin bo‘lgan, tarix sahifasida qolib ketgan xalifalikni tiklash g‘oyasiga ham zo‘r berilmoqda¹.

Ana shu yo‘lda islom fundamentalizmi vakillari, hatto diniy e‘tiqod darajasida, inson qalbi ma‘naviy boyligining ajralmas qismi bo‘lgan milliy o‘ziga xoslikni “qurbon” qilish g‘oyasidan ham toymayptilar.

Afsuski, ular bu g‘oyaning puch ekanligi va uni XXI asrda amalga oshirib bo‘lmasligini tushunmaydilar va johilliklari tufayli tushunishni ham istamaydilar.

Inson jamiyati tabiatdan ajralib chiqqandan buyon son sanoqsiz terrorlarni boshidan kechirgan.

Terrorizmning asl mohiyatini siyosat falsafasi siyosatshunoslik nuqtai nazaridan olib qarash, uni chuqur ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, jamiyat hayotida yuzaga kelish xususiyatlarini tadqiq etish va uni bartaraf etish usullari, vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Zero, terrorizm bugunda insoniyat ravnaqiga eng katta havf solayotgan tahdid bo‘lib qolmoqda.

Har qanday diniy ekstremizm va fundamentalizm faoliyatining mohiyati o‘zgalar ustidan hukmronlikka yoki mavjud siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy tartibotga qarshi zo‘ravonlik, dahshat solish, jismoniy kuch ishlatish orqali g‘arazli maqsadlarga erishishdan iboratdir. Shuning uchun ham terrorizm, ekstremizm va fundamentalizm butun jahon afkor oilasi, progressiv kuchlar tomonidan qoralanmoqda. Ekstremizm va fundamentalizmning qoralanishiga sabab O‘zbekistonda sodir etilgan harakatlar mutlaqo begunoh kishilar, ayniqsa, norasida go‘daklar, ayollar va keksalar uning qurboniga aylanganligidadir. Bugungi kunda O‘zbekistonda yetuk ma‘naviyatli, ma‘rifatli shaxs jaholatdan yiroq bo‘ladi va diniy ekstremizm va fundamentalizm ko‘rinishidagi harakatlarga qarshi immunitetni shakllantira oladi.

Diniy ekstremistik va fundamentalistik harakatlarning ko‘rinishi esa aynan ma‘rifatsizlikka asoslangan jaholatning achchiq mevasi sifatida yuzaga keladi. Diniy ekstremizm va fundamentalizm jaholatning bir ko‘rinishi ekan, jamiyat hayotida unga yondosh bo‘lgan haqsizlik, adolatsizlik inson qadr-qimmatining toptalishi, huquqlarining poymol

¹ Ўша асар, 49-бет.

qilinishi, ijtimoiy zo'ravonlik kabi jaholat turlari u bilan egizakdir. Biri ikkinchisini yuzaga keltiradi va biri ikkinchisidan oziqlanadi. Demak, diniy ekstremizm va fundamentalizmning oldini olishda O'zbekistonda xalq ommasining barcha qatlamini bu harakatlarlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, bu jarayonga erishish uchun esa, joylarda ta'lim va tarbiya jarayoniga katta ahamiyat berish zarur.

Bugungi kunda ommaning turmush tarzida ayniqsa ishlarni diniy ekstremizm va fundamentalizm vahhobiylikning zararli va buzg'unchi g'oyalari og'ib ketmasliklari uchun oilada yoshlarga sog'lom tarbiya berish, fuqarolarning imon e'tiqodini mustahkamlash, milliy g'urur va iftxor bilan yashashga erishish, har tomonlama komil shaxslar qilib tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, fuqarolar ongida milliy istiqlol g'oyalari shakllantirish orqali uning oldini olish mumkin¹.

Vatanimiz mustaqilligiga tahdid soluvchi, fuqarolarimiz ongi va qalbini egallashga qaratilgan zararli g'oyalarning xavfi yadro maydonidagi xavfdan ham ortiq. Jumladan, "hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarning qalbini va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi"².

Bugungi kunda diniy ekstremizm va fundamentalizm haqida gap ketganda "millatni asrash" degan tushunchaga alohida e'tibor berish zarur.

Millatni asrash-o'zligimizni, odob-axloqimizni, merosimiz, qadriyatimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish degan ma'noni anglatadi.

Prezident Islom Karimov "Insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqodda faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, buzg'unchi kuch, hatto fanatizm sifatida foydalanganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Aynan fanatizm illatiga yo'lliqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'ldinini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar"³, deya alohida ta'kidlaydi.

¹ Мунавваров З., Ёвқачев Ш., Жабборов И., Терроризм: иддао ва ҳақиқат Т.: 2001. 75-бет.

² Президент И.А.Каримовнинг "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари" асарини ўрганиш бўйича ўқув-кўргазмани қўлланма. Т.: "Шарқ" 1999, 6-бет.

³ Президент И.А.Каримовнинг "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари" асарини ўрганиш бўйича ўқув-кўргазмани қўлланма. Т.: "Шарқ" 1999, 326-бет.

XXI asrda ham g'oyaviy tortishuvlar to'xtamayapti. Shu bois xalqimizning ertangi mafkuraviy birligini ta'minlash g'oyaviy tarbiyaning izchil, doimiy asosga qo'yilishini taqazo etdi.

Prezident I.A.Karimov mafkura jabhasiga oid muhim fikrlarni bildirib, jumladan quyidagilarni aytdi., "Mintaqamizda "Hizbut tahrir" kabi ekstremistik, ayirmachilik tashkiloti faoliyati tobora xavfli tus olmoqda. U konstitutsiyaviy, dunyoviy davlat tuzumiga qarshi chiqib, o'rta asrlardagi islom xalifaligini tuzish to'g'risidagi bo'lmag'ur g'oyani targ'ib qilmoqda... Lekin, taassuf bilan tan olish kerakki, bu yovuz kuchga qarshi kurashdagi harakatlarimizda hamjihatlik va izchilik ko'zga tashlanmayapti"¹.

Milliy mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqarodagi mustaqillikning siyosiy mohiyati, Prezident Islom Karimov asarlarida ko'tarilgan siyosiy g'oyalar, islohotlar yutuqlari va muammolari, ichki va tashqi siyosatga doir chuqur bilimlarga tayanadi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish lozim. Bu, bir tomondan. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Fuqarolarimizning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mafkuraviy immunitetning ikkinchi asosiy unsuri ana shunday bilimlar zamiridan shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

¹ Файзиев С. Ёшларни терроризмга қарши ғоялар руҳида тарбиялаш – давр талаби. //Фалсафа ва ҳуқуқ. 2007 йил, 61 бет.

2.5. Missionerlik va uning oldini olish chora-tadbirlari

Dars o'tish metodikasi:

Ushbu mavzuni o'tishda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

“INTERVYU”

Texnologiyaning maqsadi: Har bir muammo bo'yicha ma'lum axborotga ega bo'lish, hozirjavoblikka o'rgatish, mavzuni mustahkamlash.

Texnologiyaning o'tkazilish tartibi:

Ishtirokchilar 3 ta guruh va 1 ta ekspert, 3 ta jurnalistga bo'linadilar.

Har bir guruh oldindan tayyorlab qo'yilgan film namoyishini o'tkazadi. (Bu pantamima shaklidagi klip ham bo'lishi mumkin). So'ngra ular oldiga guruhga birlashtirilgan jurnalist kelib, intervyu oladi va sharhlab beradi.

Guruhdagi eng faol ishtirokchi savol-javobda qatnashadi.

Guruhlarga tayyorgarlik uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

1-film – “Missionerlik”

2-film – “Asr vabosi”

3-film – “Odam savdosi”

“MUAMMO”

Texnologiyaning maqsadi: Tinglovchilarni o'quv va hayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash, ularning fikrlash qobiliyati va nutq faoliyatini shakllantirish.

Mashg'ulot o'tkazish tartibi: O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin tinglovchilarga stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi. Joyni bunday jihozlanishi treningning jonli o'tishiga yordam beradi. So'ngra ularning faoliyati rang-barang va hamisha har turli qiziq vaziyatlar, voqealar, hodisalarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg'ulotni boshlaydi.

Misol tariqasida o'qituvchi talabalar faoliyatida uchraydigan vaziyatlardan biri to'g'risida gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yo'lini so'raydi.

O'qituvchi fikr mulohazalarni tahlil etadi.

Kutiladigan natija:

1) Ushbu mashg'ulot tinglovchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, izlanishga, qo'yilgan muammoni yechishga o'rgatadi.

2) Muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatiladi.

Misol:

Diniy ekstremizm muammosi...

Terrorizm va uning oldini olish muammosi...

Vahhobiylik va uning oldini olish...

Ommaviy madaniyat va ommaviy axborot vositalari...

Korrupsiya va jinoyatchilik...

Missionerlik milliy birlik va jamiyat barqarorligiga tahdid solar ekan, unga qarshi kurash, oldini olishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Tarix ilk bor missionerlarga hech qanday mol-mulkka ega bo'lmay, qishloqma-qishloq, shaharma-shahar yurib, odamlarga «Xushxabar»ni yetkazishga harakat qilganliklaridan guvohlik beradi. Ilk missionerlar asosan o'sha davrlarda ham anchagina noyob kasb hisoblangan va yuqori qadrlangan tabiblik faoliyati bilan shug'ullanib, insonlarni davolash bilan bir qatorda dinni targ'ib qilganlar. Bu o'z davri uchun eng samarali usullardan biri edi, zero, aynan tabiblar ko'pchilik insonlarning xristianlikni qabul qilishlariga sabab bo'lishgan. Iso Masihning ko'pchilik izdoshlari uning o'zi davolagan insonlar bo'lgani ham missionerlarning ushbu usulga alohida ahamiyat berishlariga zamin yaratgan bo'lsa ajab emas.

Bundan tashqari xayriya yordamlarini ko'rsatish amaliyotidan ham foydalanilgan. «Santa Klaus» atamasining kelib chiqishi bolalarga xayriya yordamlarini ulashgani bilan shuhrat qozongan juda boy va ayni paytda, o'ta saxiy inson bo'lgan avliyo Nikolay nomi bilan bog'liqligi ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shunday bo'lsa-da, missionerlarning qo'llarida katta imkoniyat va qulay vositalar hali yo'q edi. Ammo o'tgan yuz yillar davomida missionerlik yirik bir tarmoqqa aylanib ulgurdi¹.

Zamonaviy missionerlar turli sohalarida uzviy birlikda, tizimli va tadrijiy ish olib borilgandagina kishilar ongi va qalbini egallash mumkinligini yaxshi tushunishadi. Zero, har bir soha kishilar ongiga ta'sir o'tkazishning o'ziga xos va betakror usullariga ega. Ayni paytda, tizimli ish olib borilganda bu usullar va o'ziga xosliklar bir-birini to'ldiradi hamda insonni butun hayoti davomida muntazam ta'sir ostida saqlash imkonini beradi.

¹ Очилдиев А., Нажмидинов Ж. Миссионерлик: моҳият, мақсадлар, оқибатлар ва олдини олиш йуллари (юз саволга – юз жавоб) – Т., Тошкент Ислам университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2009, 91-92-бетлар.

Insonning hayotda kim bo'lib yetishishi ijtimoiy qarashlar va qadriyatlarni singdirish, mustahkamlashga xizmat qiladigan ta'lim-tarbiya tizimiga bog'liq. Zero, muayyan bilimlar ta'lim jarayonining o'zida bevosita va to'g'ridan-to'g'ri, ilmiy asosda va tizimli tarzda o'zlashtiriladi.

Missionerlar davlatimiz siyosatiga xos insonparvarlik tamoyillariga ham moslashishga harakat qilmoqdalar. Ularning ibodatga keluvchilarning axborotlariga tayanib, konkret-adresli yondashuv asosida yangi o'quv yili arafasida muhtoj oilalarning 1-sinfga boradigan bolalariga daftar, qalam va boshqa kanselyariya mollari, «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilariga esa, unga qo'shimcha tarzda bolalar kiyim-boshlari va o'yinchoqlar sovg'a qilishga urinayotganini ham misol qilsa bo'ladi.

Missionerlar til va kompyuter o'rgatish markazlari, hatto maktab yoshigacha bo'lgan bolalar uchun shu yo'nalishdagi ixtisoslashgan bolalar bog'chalari ochish orqali ham yoshlar orasida tegishli targ'ibotni tashkil etishga harakat qilmoqdalar. Aholi o'rtasida o'z faoliyatlari haqida ijobiy tasavvurni shakllantirish missionerlikni amalga oshirish uchun niqob bo'lib xizmat qiladi.

Muayyan qarashlar va qadriyatlarni yashin tezligida ommalashtirish, tarqata olish imkoniyatiga egaligi tufayli radio va televideniye kishilar ongi va qalbiga ta'sir o'tkazishning tezkor va katta shiddat bilan kyechishiga zamin yaratmoqda. Radio va televideniye imkoniyatlaridan foydalanishga intilish esa missionerlar faoliyatining hududiy jihatdan juda keng qamrov kasb etishiga olib keldi. Shu bilan birga, aniq belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida har tomonlama va puxta ishlangan reja asosida ish olib borish aholining turli qatlamlariga doimiy asosda e'tiqodiy bosim va tazyiq o'tkazishga yo'l ochmoqda.

Missionerlik ruhi bilan sug'orilgan radio va teledasturlar mazmunini o'rganish ularning e'tiqodiy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mavjud muammolari, jiddiy o'rganilgan holda tashkil etilayotganini ko'rsatadi.

Teatr, raqs, qo'shiq, musiqa san'ati kabi bir qator san'at turlarini o'zida mujassamlashtirgan san'at turi sifatida kino e'tiqodiy tajovuzkorlikni amalga oshirishda o'ziga xos o'rin egallaydi. Ko'pchilik uchun tushunarli ekani kinoning ommaviy g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati kengligini belgilab beradi.

Kino inson ongi va xulqiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos uslublari va imkoniyatlariga egaligini kishilarning mashhur kinoqahramonlarga taqlid qilishlarida, ularning xatti-harakatlari, qiliqlari va hatto,

kiyinishlarini takrorlashga intilishlarida ko'rishimiz mumkin. Kino qahramonlar aytgan va mashhur bo'lib ketgan so'zlar, iboralar va gaplarni ham kinoning kishilar xulqiga ta'sirini ko'rsatuvchi hayotiy misollar sifatida qarash mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, masalan, 2006 yilda missionerlik g'oyalari bilan sug'orilgan 118 ta kinofilm ishlab chiqarilgan bo'lib, ular Gollivudda yaratilgan barcha filmlarning 41 foizini tashkil etadi.

Jamiyat taraqqiy etib borgan sari missionerlik ham unga mos ravishda zamonaviy fan-texnika va texnologiyalardan ustalik bilan foydalangan holda o'z uslub va vositalarini takomillashtirib bormoqda.

Bugungi kunda Internet ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanib borayotgan bo'g'ini hisoblanadi. Hozirgi internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqalar orqali ham foydalanish mumkin¹.

Aynan mana shu holat internetning g'oyaviy kurash va targ'ibot, jumladan, e'tiqodiy targ'ibot va tajovuzni amalga oshirishning asosiy maydonlaridan biriga aylanishiga zamin yaratmoqda.

Missionerlik bir qarashda, insoniyat ravnaqi, dunyoda tinchlik o'rnatish, muhtoj-u bechoralarga beg'araz ko'mak ko'rsatishga qaratilganday tuyuladi. Ammo chuqurroq nazar tashlansa, ularning barchasidan g'arazli maqsadlar ko'zlanayotgani ayon bo'ladi. Avval ular o'zlarini saxiy va insonparvar ko'rsatib, keyinchalik asl qiyofalarini oshkor qilishadi. Ba'zi hollarda «shuncha yaxshiliklar evaziga» xristianlikni qabul qilish talab ham qilinadi.

Missionerlikning oldini olishga qaratilgan ishlar tizimli olib borilayotgan bir paytda ularning o'z faoliyatini viloyat va tuman markazlaridan uzoqroq joylarda amalga oshirishga va asosiy ob'ekt sifatida mahalliy millatlar vakillari yashaydigan hududlarni tanlashga harakat qilishlari kuzatilmoqda.

Missionerlar o'zlari haqida ijobiy tasavvurni shakllantirish va shu asnoda o'z faoliyatlarini kengaytirish maqsadida maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashga ham alohida e'tibor bermoqdalar. Jumladan, bolalar uchun yozgi oromgothlar tashkil etish orqali tegishli e'tiqod-u ta'lim-tarbiyani amalga oshirishdan keng foydalanilayotganini ta'kidlash zarur.

¹ Очипидиев А., Нажмиддинов Ж. Миссионерлик: моҳият, мақсадлар, оқиябатлар ва олдини олиш йўллари (юз саволга – юз жавоб). - Т., Тошкент Ислам университети натириёт-матбаа бирлашмаси, 2009, 103-104-бетлар.

Yozgi ta'til davrida bolalarni dam olish joylariga qisqa muddatga olib chiqish, kamida ikki mahal ovqat beriladigan kunduzgi dam olish lagerlari tashkil etish ham missionerlardan faol foydalanadigan usullardan hisoblanadi.

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni ham missionerlarga bolalar va ularning ota-onalari orasida tegishli targ'ibot va tashviqot olib borish uchun qulay imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Bunday paytda, missionerlar bolalar uchun istirohat bog'larida maxsus dam olish dasturlarini tashkil etish, shirinliklar tarqatish, muhtoj oilalar farzandlariga «xayriya» yordami ko'rsatishga alohida e'tibor beradilar. Tarqatilayotgan kitoblar ichida bolalar uchun mo'ljallangan «Injil»ning bo'lishi esa tashqaridan qaragan odam uchun kichik bir tasodif, ammo missionerlar taktikasidagi tabiiy-qonuniy hol hisoblanadi.

Mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, olib borilayotgan kuchli va tizimli ijtimoiy muhofaza siyosati, milliy g'oya konsepsiyasining ishlab chiqilganligi va unga asoslangan holda olib borilayotgan mafkuraviy tarbiyamizning o'z e'tiqodida mustahkamligi missionerlik harakatlari yo'lida jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidlash zarur.

Ma'naviy tahdidlar va unga qarshi kurash yo'llari

Vaqt-2 soat	Talabalar soni 25-30 nafar
Ma'ruza mashg'uloti rejasi	1. Ma'naviyatga tahdid – jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf. 2. Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda oila va mahallaning o'rni. 3. Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati 4. Mafkuraviy immunitet - xavfsizlikning ma'naviy asosi.
	Ma'naviy tahdidlar va ularning oldini olish chora-tadbirlarini yoritib berish
Pedagogik vazifalar: - ma'ruza olingan bilimlarni mustahkamlash va ular asosida dokladlar tayyorlash ko'nikmalari hosil qilish; - bilimlarni tizimlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish -Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, ko'nikmalarni hosil qilish	O'quv faoliyatining natijalari: - ma'naviy tahdidlarning jamiyat hayotiga salbiy ta'sirini yoritish; - korrupsiya va jinoyatchilik va uni oldini olish usullarini talabalarga tushuntirish; - ma'naviy tahdidlarni oldini olishda oila va mahallaning o'rni yoritish; - talabalarda har qanday ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni kuchaytirishdan iborat.
O'qitish usullari va texnikasi	Muammoli usul, guruh bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, galereya, tayanch atamalar, pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ma'naviy tahdidlarga oid film namoyish qilish.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv materillari, marker, skotch, qog'oz, kompyuter, texnika vositalari, videodan foydalanish.
O'qitish shakllari	Guruhlarda, kollektiv, yakka
O'qitish sharoitlari	Auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich Kirish (10 daq.)	1.1. Mavzu, maqsad rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Olingan bilimlarni tekshirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida savol-javob o'tkazadi. 5-ilova. 1.3. Dars mashg'uloti guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e'lon qiladi. Guruhda ishlash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va vaqtini aniqlashtiradi (1,2-ilova)	1.1. Eshitadi, mavzuni yozadi, savollarga javob beradi va aniqlashtiradi.
2-bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalarining diqqati ma'ruzaga qaratiladi.	2.1. O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taqsimlaydi, umumiy ma'ruzani shakllantiradi. 2.2. Natijalarni prezentatsiya qiladi, nazorat savollariga javob beradi. Qolgan ishtirokchilar taqdimotni to'ldiradilar va savollar beradi. Ekspertlar baholaydi.
3-bosqich Yakuniy (10 daq)	3.1. O'quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlariga qaratadi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Jamiyat hayotiga xatar solayotgan mafkuraviy tahdidlar nimalardan iborat?

Islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musurmon xalqlarini imperiyaga birlashtirish

Yosh mustaqil davlatlarni Sobiq Ittifoqqa birlashtirish g'oyasi

Turli mafkuraviy vositalar orqali davlatlararo majarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar

*Hammasi to'g'ri

2. Quydagilardan qaysi biri jamiyat yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shovinizm, Fanatizm

*Rennesans, Gumanizm

Fanatizm, Ekstremizm

To'g'ri javob yo'q

3. Muayan shaxs yoki millatni boshqalardan ustun qo'yadigan mafkuraviy aqida bu ...

Materializm

Dualizm

*Shovinizm

Plyuralizm

4. «Musulmon birodarlari» tashkiloti vaxxobiy mafkurasi asosida birinchi marta qayerda shakllangan.

«Axbosh» nomi bilan Livanda

*«Allox-bizning idealimiz. Payg'ambar-yo'lboshchimiz, Jihod-maqsadimizga erishish vositasi, Alloh yo'lida shaxid bo'lish-muqaddas tilagimiz» shiori bilan Misrda

«Dorul-Akram» nomi bilan Malayziyada.

«Har bir yangilik zalolatdir» shiori bilan Markaziy Arabistonning Najd vohasida.

5. Xizbut Tahrir al-Islomiya diniy tashkiloti qachon va qayerda paydo bo'lgan?

1927 yil Misrda

*1953 yil Isroilda

1980 yil Markaziy Arabistonda

1985 yil Sudanda

6. Xoh islomiy, xoh boshqa tUSDagi davlatchilikni kuch bilan o'rnatish harakati O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksiga binoan qanday jinoyat hisoblanadi.

Ma'muriy qonunbuzarlik

Talonchilik jinoyati.

Mansabni suiste'mol qilish.

*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilishi.

7. Ekstremizm va fundamentalizim tahdidi qanday holatlarda namoyon bo'ladi.

Xalqning davlatga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqarishda.

Barqarorlikni, millatlararo totuvlikni buzishga intilishda.

Asossiz da'vatlar hisobiga yoshlarni orqalaridan ergashtirishda.

*Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

8. Aqidapiraslik g'oyalari qaysilar kiradi?

«Sof islom» prinsiplariga qaytish.

Diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan yo'l-yo'riqlarga og'ishmay amal qilish.

Islomiy davlat qurish

*Barchasi to'g'ri

9. Jamiyat hayotida beqarorlikni keltirib chiqaradigan ta'limot.

Islom

Buddizm

*Vahhobiylik

Induizm

10.«Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirini shod aylagay, Oncha borki, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay» satrlari kimning qalamiga mansub?

*A.Navoiy

Z.Bobur.

S.Sheroziy

A.Avloniy

Xulosa

Prezident I.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ma'naviy tahdidlarning oldini olish va ularni yosh avlod ongiga singdirishning uch tabarruk makoniga alohida e'tibor qaratadi: ularning birinchisi – oila, ikkinchisi – mahalla, uchinchisi – ta'lim-tarbiya tizimi. Agar shu uch makonda ma'naviy muhit ko'ngildagidek bo'lsa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi, agar ular tanazzulga qarab ketsa, butun jamiyat halokatga yuz tutadi. Afsuski, muayyan sabablarga ko'ra, bugungi kunda har uch makonda ham muammolar ancha-muncha yig'ilib qolgan.

Kitobda oila ma'naviy muhitiga alohida e'tibor ajratilgan. Ba'zi ota-onalarning o'sib kelayotgan yosh farzandlarining qiziqish va intilishlariga, ularning “ong-u tafakkurida har kuni bir o'zgarish yuz berib, ko'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga” jiddiy ahamiyat bermasligi, boz ustiga ba'zi ota-onalar bola oldida o'zini tutishni bilmay, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga ahli oilasiga qo'pol muomala bilan farzandlari ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto ba'zi oilalarda bolaning ma'naviy olamida og'ir asoratlar qoldirishi mumkin bo'lgan o'zgalar baxtini ko'rolmaslik, fisq-u fasod, ig'vo muhiti ham mavjudligi taassuf bilan qayd etiladi va shunday xulosa qilinadi: “Biz o'z farzandlarimizning baxt-u saodatini, iqbol va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahallakuydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur”.

Muallif har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni yaxshilash haqida bosh qotirar ekan, yana badiiy so'z qudratiga murojaat qilishni maslahat beradi. Mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar”ida tasvirlangan o'zbek oilalariga xos odob va axloq namunalarini ibrat qilib ko'rsatadi. O'zbek xalqining azaliy bolajonligi, oilaparvarligini iftixor bilan ta'kidlar ekan, muallif bunday ezgu tuyg'ular farzandlarni “yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish” yo'lida sarflanishi lozimligini alohida uqtiradi.

Axborot huruji – muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularni hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, turmush tarzi va

mentalitetidagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun moddiy, iqtisodiy, ma'naviy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis munosabatlardan foydalanish asosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasini anglatadi.

Har qanday axborot hurujlari axborot qurollari orqali amalga oshiriladi. Axborot hurujlarining eng yovuz va tahlikali shakli kishilar ongiga g'oyaviy va mafkuraviy ta'sir o'tkazishdir. Ana shuning uchun ham Yurtboshimiz I.A.Karimov «Mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan qudratlidir» degan fikrini o'rta tashlagan edi.

Axborot hurujlarining bugungi kundagi namoyon bo'lish xususiyatlari o'zining tarixiy o'tmishiga ham ega. Agar 1990 yillarga qadar axborot hurujlari ikkita sistema o'rtasida (kapitalizm va sotsializm) g'oyaviy kurash tarzida ko'zga tashlangan bo'lsa, bugungi kunda uning shakli ham, mazmuni ham o'zgardi. Endilikda axborot hurujlaridan ko'zlangan asosiy maqsad, muayyan kuchlarning kishilar ongi va qalbiga ta'sir etish orqali o'zlarining siyosiy maqsadlariga erishishga urinish bilan bog'liq bo'lib qoldi. O'zbekistonda jamiyatimizga yot bo'lgan g'oyalarning kirib kelishiga qarshi mukammal tizimli kurash olib borish maqsadida, axborot kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish jahon ommaviy axborot vostalarini, Internet tizimini nazorat qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T. «O'zbekiston», 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. - T.: «O'zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.- T.: «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O'zbekiston», 2000.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000.
7. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. - T.: «O'zbekiston», 2001.
8. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. T.9. - T.: «O'zbekiston», 2001.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003.
10. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.: 12. -T.: «O'zbekiston», 2004.
11. Karimov I.A. «Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq». Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi nutq. T., «O'zbekiston», 2004 yil, 29 aprel.
12. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: «O'zbekiston», 2005.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etishning choralari va yo'llari – T., O'zbekiston, 2009.
15. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. - T., Akademiya, 2000.
16. Abdulloh H.I. Din niqobidagi jinoyatchilar. O'zbekiston ovozi, 1998 yil 5 mart.
17. Azimov A. Diniy ekstremizm va fundamentalizm. (10 soatlik maxsus kurs dasturi). Toshkent, 1998.
18. Axborot xavfsizligi: muammo va yechimlar. – T., Akademiya, 2008.
19. Bekmurodov A.Sh. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. -T.: TDIU, 2005.
20. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahrirda). O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T., 1998 yil.
21. Globallashuv va axborot xuruji mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2007.

22. Diniy ekstremizm va fundamentalizmning bugungi kundagi xavfi (Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). – T., 2004.
23. Лешков М. “Глобализация: Сущность инвешняя фаза, перспективы”. “Proet Contra” T.; 4, №4, осень 1999.
24. Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. -T.: Ma'naviyat, 2000.
25. Jaholatga qarshi ma'rifat. – T., 2005.
26. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. -T.: «Ma'naviyat», 2000.
27. Zalolatga ketmang! Hizbut-tahrir fitnasidan ogog' bo'ling. – T., Movarounnahr, 2003.
28. Zakurlaev A. G'oyalar kurashi. – T., Movarounnahr, 2000.
29. Клаус Зерберс “Сшивая лоскутное одеяло...” (Шанс и риск глобализации в России) “Proet Contra tosh” № 4 Осень, 1999.
30. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. – T., Akademiya, 2008.
31. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
32. «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lug'at)» T., «Yangi asr avlodi», 2002.
33. Михеев В. “Логика глобализаций и интересы России”. “Proet Contra”, 4 Осен, 1999.
34. Muqaddas his-tuyg'ular bilan o'ynashib bo'lmaydi. – Qarshi, 2006.
35. Rahimqulov A. Iymoningni yo'qotma. Mulkdor, 1998 yil 20 fevral.
36. Rahmatov O. Ogohlik – muqaddas burch. – T., Movarounnahr, 2000.
37. Saifnazarov I., Karimov T.: Muxtorov A. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. -T.: «Yangi asr avlodi», 2004.
38. Ochilidiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. -T.: «O'zbekiston», 2004.
39. Terrorizm – taraqqiyot kushandasi. Тошкент, 2002.
40. Shamsiyeva I. “Yosh avlod ma'naviy rivojiga internetning ta'siri va axborot psixologik xavfsizlik muommosi”. “Ijtimoiy fikr-inson huquqlari” jurnali №1, 2007.
41. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005.
42. Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va ekstremizm. – T., Тошкент to'qimachilik va yengil sanoat instituti nashriyoti, 1999.
43. Halilov H. Loqaydlik girdobi. Adolat, 1998 yil 27 mart.
44. Hotamov G'. Yovuzlikka qarshi turmagan uni yoqlagan bo'ladi. Faktlar, talqinlar, munosabatlar. – T., Ma'naviyat, 2002.
45. Hudoyberdiyeva R. Ekstremizm va fundamentalizm. (Unga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslari). //Huquq va burch. № 4, 2008.

O'zbekistonda islom a'molining faollashuvi

Avvalgi mafkuraviy tasavvurlar va qadriyatlar tizimining yemirilishi hamda muayyan vaqt mobaynida paydo bo'shliqning o'rmini to'ldirish. Sobiq kommunistik mafkuraning ma'naviy qashshoqligi, fanatizm va millatlarga qarshi qaratilganligi bilan sho'ro hokimiyatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm va an'anaviylik uchun sharoit yaratdi. Xuddi shu yillari kommunistik mafkura inqirozidan keyingi bo'shliq hosil bo'lgan makonda turli dinlar, turli qarashlar, turli jaholatparastlar, ba'zan bilimsiz ruhoniylar faollashdi, bo'shliqni egallashga intildilar.

O'tish davridagi
islohotlarning
muqarrar
qiyinchiliklari,
aholining obyektiv
tabaqalashuv
jarayoni va
mulkdorlik belgisi
bo'yicha tabiiy
tafovutlar ham dinni
jonlantiradi

Milliy o'zlikni anglash
tuyg'usi, etnik jihatdan
nasl nasabini izlashga
intilishning o'sganligi

“Vahhobiylik”, “Islom ekstremizmi”, “Islom fundamentalizmi”, “Fanatizm” tushunchalari

Vahhobiylik

Adolatni yuzaki tushunib targ'ib qilishda, islomning ma'naviy-axloqiy me'yoriga qattiq rioya etishni talab qilishda hamda zeb ziynatdan va manfaatparastlikdan voz kechishni e'lon qilishda namoyon bo'ladigan oqim

Islom ekstremizmi

Ular qadimgi islom g'oyalari va an'alarini qayta tiklash shiori ostida terrorizmni uyushtiruvchilardir

Islom fundamentalizmi

Ular islomning fundamental g'oyalarini tiklash, islom vujudga kelgan davrga qaytish shiori ostida harakat qiluvchilar bo'lib, din va siyosatni bir tushuncha, islom bilan millat manfaatlarini bir, deb tushunadilar, davlatlarni islomlashtirishni targ'ib qiladilarki, bu mojarolar va ziddiyatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi

Fanatizm

Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z dinini haqiqiy deb tushunadi va boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz bo'lishni targ'ib qiladi, mamlakatdagi vaziyatni keskinlashtiradi, demokratik davlat obro'siga putur yetkazadi

Diniy ekstremizm keltirib chiqaruvchi sabablar

Diniy ekstremizmni u yoki bu dinning o'fa tajovuzkor, agressiv va jinoiy yo'naltirilgan mazhabi yoki oqimidir.

Diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablar

Dindan foydalanib dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa maqsadlarni amalga oshirish uchun intilish

Inson, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini emas, balki dinning yashashga bo'lgan huquqini e'tirof etish

Dinni dunyoqarash tafakkurining yagona vositasi deb hisoblash

O'zbekistonning milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi manbalar va sabablar

"Sovuq urush" barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy mahalliy mojarolar va davlat ichidagi jangari seperatizm solmoqda

Yurtimizning mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirilib kelinayotgan ichki mojarolar avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'lar bilan chegaradosh ekanligi

Har bir mintaqaning hal qilinmagan va gazak olib ketgan muammolari, vaziyatning beqarorligi

Tojikistonda fuqarolar urushi-ning keng yoyilib ketish xavfining saqlanib kelayotganligi

O'zbekistonning o'z jo'g'rofiy siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashganligi

Mintaqaviy nizolarning ko'pincha terrorizm va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan noqonuniy savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib borayotganligi

O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turganligi

Ekologik xavf-xatar, jumladan, Orol dengizi falokati

Davlat va din o'rtasidagi munosabatda O'zbekiston amal qilayotgan tamoyillar

Dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish

Diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish

Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik

Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqat qilish yo'llarini izlash zarurati

Diniy buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish

Diniy fundamentalizmning har qanday ko'rinishlariga qarshi chiqayotgan jahondagi ta'sir doirasi keng va obro'-e'tiborli kuchlar, turli madaniyatlar hamda sivilizatsiyalar yonma-yon yashashining normal, tinch va o'zaro foydali shart-sharoitlari uchun kurashda O'zbekistonning o'rni va ahamiyatini anglab yetmoqda

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmi- aqidaparastlikning tahdidi

→ Bu – aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda

→ Mamlakat mintaqalari aholisi va qatlamlar o'rtasidagi “haqiqiy” va “soxta” dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik keltirib chiqarishda

→ O'zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo'shni mamlakatlarda fuqarolar urushi to'xtamay davom etib kelayotganligida

→ Musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida ko'ngilni sovutadigan fikr tug'dirishga urinishlarda

→ Islom sivilizatsiyasi va islomiy bo'lmagan sivilizatsiya o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda. Uning jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatishida


→ Ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda namoyon bo'lmoqda

Islom dinining roli to'g'risidagi baholar


Islom dinidan siyosiy kurash uchun, ommaning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatish vositalariga ega bo'lish uchun qurol sifatida foydalaniladi. U bir tig' vasifasini bajarishga qodir. Bu tig' ostida esa aniq bir dasturiy maqsadlarni izlovchi emas, balki faqat ko'rsatmaga – hokimiyat uchun kurash olib borish haqidagi ko'rsatmaga amal qiluvchi kuchlar birlashadi.

Islom dinining madaniy qadriyatlari va an'analari, jahon miqyosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma'naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko'p jihatdan qo'shilgan hissani, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan Yangi qiyofasini ham belgilab beradi


Dindan unga e'tiqod qiluvchi fuqarolarni umuminsoniy axloqiy me'yorlar, insonparvarlik, imonli, insofli, bahamjihat, vatanparvar bo'lish ruhida tarbiyalashda foydalanish mumkin, lekin dindan vayron qiluvchi kuch sifatida foydalanish xavfsizlikka tahdid soladi.




TERRORIZMNING MOLIYAVIY MANBALARI (XX ASRNING 90-YILLARIGA QADAR)



XX ASRNING 90-YILLARIDAN KEYIN





Kirish.....	3
-------------	---

I-BOB. Ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlari.

1.1. Ma'naviyatga tahdid jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf ekanligi.....	6
1.2. Ma'naviy tahdidlarni oldini olishda oila va mahallaning o'rni.....	20
1.3. Ma'naviy tahdidlarni oldini olishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati.....	27
1.4. Mafkuraviy immunitet - xavfsizlikning ma'naviy asosi.....	37
1.5. Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar va ularning oldini olish chora-tadbirlari.....	48

II-BOB. Ma'naviy tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid.

2.1. Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar.....	51
2.2. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zaruriyati.....	60
2.3. Korruptsiya va jinoyatchilik va uni oldini olish.....	67
2.4. Diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.....	80
2.5. Missionerlik va uni oldini olish chora-tadbirlari.....	86
Xulosa.....	95
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	97
Ilovalar.....	99

MA'NAVIY TAHDIDLAR VA UNGA QARSHI KURASH YO'LLARI (metodik qo'llanma)

Muharrir:	Behbud Botirov
Dizayner:	Bahodir To'xliyev
Texnik muharrir:	Asqad Nazarov

Bosishga ruxsat etildi: 13.12.2010.
Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$ Hajmi 7,0 b.t.
Adadi 160 nusxa. Buyurtma № 30.

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti

“BAYOZ” MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.
100100, Toshkent sh. Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.

